

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO'LIMI**

Qo'lyozma huquqida

UDK: 811.512.133:81 373

MUHAMMADIYEVA MANIJA NURULLO QIZI

**AREAL LINGVISTIK TADQIQOTLARDA IJTIMOY-MAISHIY
LEKSIKANI XARITALASHTIRISH MASALASI**

70230101 - Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi bo'yicha magistr akademik
darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:



Kurbanazarova N.

TerDU o'zbek tilshunosligi

kafedrasi dotsenti v.b., f.f.f.d. (PhD)

TERMIZ-2023

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2022-yil №2-T/M sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilinimg QR-kodi:



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (60 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko‘chasi 43-uy.)

Ilmiy rahbar




PhD. N. Kurbanazarova

Kafedra mudiri:



PhD. N. Amonturdiyev

Magistratura bo‘lim boshlig‘i



PhD. A.B. Narbayev

70230101 - Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi magistranti
Muhammadiyeva Manija Nurullo qizining “Areal lingvistik tadqiqotlarda
ijtimoiy-maishiy leksikani xaritalashtirish masalasi” mavzusidagi
magistrlik dissertatsiyasi

ANNOTATSIYASI

Tayanch so‘zlar: Areal lingvistika, izoglossa, ijtimoiy leksika, areallogik tadqiqotlar, dialektizmlar.

Tadqiqot obyekti. Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida yashovchilar nutqida qo‘llaniladigan ijtimoiy-maishiy leksika.

Ishning maqsadi. Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida yashovchilar nutqida qo‘llaniladigan ijtimoiy-maishiy dialektizmlarni aniqlash, ajratish va ularni areal lingvistik xaritaga joylashtirish masalasi belgilangan.

Tadqiqot metodlari. Mazkur tadqiqotimizda qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, kartografik va statistik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning yangiligi. Mazkur tadqiqotda ilk bor hududiy nuqtayi nazardan, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanidagi Sebzor, Nelova, Subhidam, A.Navoiy, Niholzor, Shahriobod va asosan Bog‘iston mahallasi Hisorak qishloqlarining areal lingvistik xaritasini tuzish masalasi ko‘tarildi;

O‘zbek tilshunosligida areal tadqiqotlarni amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari atroflicha yoritilib, Sariosiyo tumani misolida amalga oshirildi;

Xaritalashtirish jarayonida Sariosiyo hududiga xos bo‘lgan areal-individual dialektizmlar leksik, morfologik va fonetik jihatdan guruhlarga ajratilib, tasnif qilindi.

Amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqotda uning natijalaridan bakalavr bosqichi talabalari uchun dialektologiya fanidan o‘quv-uslubiy majmua tayyorlashda, Surxondaryo viloyatining areal lingvistik xaritasini tuzish jarayonida Sariosiyo tumani izoglossalarini yig‘ishda, magistrantlar uchun areal lingvistikaning o‘ziga xos sohaviy terminlari ta’rifini o‘rganishda foydalanish mumkin.

ANNATATION

**“The issue of social-household lexicon mapping in areal linguistic research”
master’s dissertation on the topic**

Key words: areal linguistics, isoglossa, social lexicon, arealological studies, dialectics,

Objects of research: The study is the socio-economic lexicon used in the speech of the residents of Sariosia district of Surkhondarya region.

The purpose of the study: the problem of identifying, separating and placing them on the areal linguistic map of the social and household dialectisms used in the speech of the residents of Sariosia district of the Surkhondarya region is defined.

Research methods: comparative, comparative-historical, cartographic and statistical research methods were used in this study.

The obtained results and their novelty – in this study, for the first time, from territorial point of view, the issue of creating an areal linguistic map of the villages of Sebzor, Nelova, Subhidam, A.Navoi, Niholzor, Subhidam and mainly Hisorak of Bogistan neighborhood in Sariosia district of Surkhondarya region was raised;

The specific features of conducting areal researches in Uzbek linguistics were covered in detail and implemented on the example of the Sariosia district;

In the process of mapping, areal-individual dialectisms specific to the Sariosia region were separated and classified into lexical, morphological and phonetic groups.

Description of the methodology used in the research. Comparative, comparative-historical, cartographic and statistical research methods were used in this study.

Practical significance: from this research and its results, to prepare a teaching-methodical complex of dialectology for undergraduate students, to collect isoglosses of Sariosia district in the process of creating an areal linguistic map of Surkhondarya region, to learn the definition of specific field terms of

areal linguistics for graduate students can be used in learning.

MUNDARIJA

KIRISH.....	7
I BOB. JAHON VA O‘ZBEK AREAL LINGVISTIKASI: TADQIQOTLAR VA RIVOJLANISH BOSHQICHLARI	
1.1-§. Areal lingvistikaning shakllanishi va mavzu ko‘lami.....	10
1.2-§. Dunyo tilshunoshligida areal lingvistik tadqiqotlar tahlili.....	18
1.3-§. O‘zbek tilshunosligida areal lingvistik tadqiqotlar tahlili.....	22
Bob yuzasidan xulosalar.....	32
II BOB. AREAL LINGVISTIKA TERMINOLOGIYASI VA LINGVISTIK XARITALAR SHARHI	
2.1-§. Asosiy terminlar sharhi va tavsifi.....	33
2.2-§. Lingvistik xaritalar va ularning turlari.....	44
2.3-§. Lingvistik xaritalar tuzishning tamoyillari.....	51
Bob yuzasidan xulosalar.....	55
III BOB. O‘zbek tilida ijtimoiy leksikani xaritalashtirish tamoyillari	
3.1-§. Ijtimoiy leksika tasnifi.....	56
3.2-§. Dialektizimlarni to‘plash va xaritaga tushurish masalasi.....	58
3.3-§. O‘zbek tilshunosligida areal tadqiqotlarni amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	73
Bob yuzasidan xulosalar.....	76
XULOSA.....	77
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	79
ILOVALAR.....	85

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Mamlakatimizda olib borilayotgan oqilona til siyosati natijasida tilshunoslik sohasi jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Xususan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabrda o'zbek tilining xalqimizning ijtimoiy hayotidagi hamda xalqaro nufuzi va maqomini tubdan oshirish maqsadidagi farmoni mazkur sohaning rivojlanishi uchun yana bir turtki bo'ldi.

Tilimizning diaxron hamda sinxron aspektlarda tekshirilishi, shuningdek, o'zbek tilining dialektal jihatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar maydonga kelmoqda.

Ushbu sohada yirik monografik ishlarning yuzaga kelishi endilikda o'zbek tili va shevalarini qiyosiy-tarixiy hamda tipologik tekshirishlarni hozirgi zamon aniq va izchil metodlari bilan, til hodisalarining tarqalish chegaralarini aniqlab beruvchi areal lingvistik metodlar asosida ilmiy jihatdan tekshirishni taqozo qiladi. Shu bilan birga o'zbek xalq shevalari atlaslarini yaratish masalasini galdagi muhim vazifa sifatida kun tartibiga chiqaradi.

O'zbek tilshunosligining ajralmas tarmog'i hisoblangan o'zbek dialektologiyasi sohasida ham qator tadqiqotlar maydonga keldi. Ko'pgina o'zbek shevalari va dialektlari strukturasi kompleks ravishda o'rganib chiqildi. Shevalar tadqiqotida asosan tasviriy, qisman eksperimental va qiyosiy-tarixiy metodlar qo'llanilmoqda. Ayrim grupp shevalar atlaslari ustida tekshirish ishlari olib borilmoqda.

Tillarning turli xil xususiyatlarini areal jihatdan o'rganish jahon tilshunosligida ancha ertaroq boshlangan. Mazkur soha keyingi yillarda o'zbek tilshunosligining ham muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. O'zbek tili va dialektlarini areal jihatdan tadqiq etish bugungi o'zbek tilshunosligida o'ziga xos ahamiyat kasb etib bormoqda.

Areal lingvistika yo'nalishi tilimiz hamda shevalarimizning nafaqat hozirgi zamonaviy ko'rinishini, balki uning tarixiy ildizlari, tarqalish areallari,

qardosh vaqardosh bo'lmagan tillar bilan aloqalari kabi jihatlarni tekshiradi, shular borasida bahs yuritadi.

Bugungi kunda milliy tilimiz va shevalarimizning tarixiy va zamonaviy ko'rinishlarini qiyoslash, ularni nozik farqlarigacha aniqlab, lingvistik atlaslarini yaratish hamon o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Areal lingvistika fanining oliy o'quv yurtlarining filologik yo'nalishlari o'quv dasturlariga qaytadan kiritilishi mazkur sohasidagi ilmiy, uslubiy manbalarga ehtiyoj yaratadi. Qo'limizdagi ushbu tadqiqot xuddi ana shu maqsadlarga xizmat qiladi.

Tadqiqot obyekti. Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida yashovchilar nutqida qo'llaniladigan ijtimoiy-maishiy leksika.

Tadqiqot predmeti. Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida yashovchilar nutqida qo'llaniladigan ijtimoiy-maishiy leksikani to'plash va areal lingvistik xaritaga tushirish.

Tadqiqotning maqsadi. Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida yashovchilar nutqida qo'llaniladigan ijtimoiy-maishiy dialektizmlarni aniqlash, ajratish va ularni areal lingvistik xaritaga joylashtirish masalasi belgilangan.

Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqib quyidagilar **tadqiqotning vazifalari qilib** belgilangan:

- areal lingvistika faniga doir nazariy ma'lumotlarni to'plash, bu sohada tadqiqot olib borgan olimlarning ilmiy fikrlarini o'rganish, tahlil qilish va munosabat bildirish;
- areal lingvistika sohasiga oid tushuncha va terminlarni to'plash, sharhlash, ularning o'rganilishi bo'yicha ma'lumotlar berish;
- areal lingvistik xaritalarning turlarini aniqlash va sharhlash;
- ijtimoiy-maishiy leksikaga oid leksemalarni ajratish, hududiy jihatdan o'rganish va bu dialektal so'zlarni xaritaga tushurish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar:

Mazkur tadqiqotda ilk bor hududiy nuqtayi nazardan, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanidagi Sebzor, Nelova, Subhidam, A.Navoiy,

Niholzor, Shahriobod va asosan Bog'iston mahallasi Hisorak qishloqlarining areal lingvistik xaritasini tuzish masalasi ko'tarildi;

O'zbek tilshunosligida areal tadqiqotlarni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari atroflicha yoritilib, Sariosiyo tumani misolida amalga oshirildi;

Xaritalashtirish jarayonida Sariosiyo hududiga xos bo'lgan areal-individual dialektizmlar leksik, morfologik va fonetik jihatdan guruhlarga ajratilib, tasnif qilindi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Mazkur tadqiqotimizda qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, kartografik va statistik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqotda uning natijalaridan bakalavr bosqichi talabalari uchun dialektologiya fanidan o'quv-uslubiy majmua tayyorlashda, Surxondaryo viloyatining areal lingvistik xaritasini tuzish jarayonida Sariosiyo tumani izoglossalarini yig'ishda, magistrantlar uchun areal lingvistikaning o'ziga xos sohaviy terminlari ta'rifini o'rganishda foydalanish mumkin.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Tadqiqot kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan (xaritalar) iborat bo'lib, 86 sahifani tashkil etadi.

I BOB. JAHON VA O'ZBEK AREAL LINGVISTIKASI: TADQIQOTLAR VA RIVOJLANISH BOSHQICHLARI

1.1-§. Areal lingvistikaning shakllanishi va mavzu ko'lami

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan globallashuv jarayonlari ilmfan va ta'lim jarayoniga ham ulkan hissa qo'shmoqda. Xususan fanlararo integratsiyaning vujudga kelishi, o'qitishning yangicha usullari va metodlarini shakllanishi, ta'limga zamonaviy axborot-texnologiyalarining joriy etilishi shular jumlasidandir. Hozirgi zamonaviy dunyoda tilshunoslik fani doirasida yangidan-yangi ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari vujudga kelmoqda va ularni ta'lim jarayonida qo'llash muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Tilshunoslik fanining muhim yangi yo'nalishlaridan biri-bu areal lingvistikadir. Areal lingvistika – tilshunoslik faninig bir sohasi bo'lib, lingvistika va geografiyaning o'zaro integratsiyasi asosida vujudga kelgan. Dunyo tillarining hudud jihatidan taqsimlanishi, shuningdek muayyan til doirasidagi hududiy farqlar (shevalar)ni o'rganadi.

Areal lingvistika sohasi bugungi kunda ham ilmiy, ham amaliy jihatdan jadal rivojlanib bormoqda. Bu yo'nalish qiyosiy tilshunoslikning eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lsa ham, bu sohada ancha ko'zga tashlanadigan ishlar amalga oshirilayotgan bo'lishiga qaramay, tilshunoslikda “areal lingvistika” tushunchasini qanday ishlatish, qanday talqin qilish borasida aniq bir to'xtamga kelingan emas. Shuning uchun xuddi ana shu sohaga tegishli bo'lgan “lingvistik geografiya” (lingvogeografiya) va “*dialektografiya*”, “*arealogiya*” tushunchalari talqini masalasida ham muayyanmunozaralar mavjud.

Arealogiya (lot. are-maydon, hudud otdan yasalgan sifatning yunoncha logikos-so'z, tushuncha, ta'lim so'zi bilan birikishidan hosil bo'lgan qo'shma so'z) ma'lum bir hududda ma'lum bir hodisalarning tarqalish xususiyatlarini o'rganadigan fan bo'lib, bir necha fanlarda (masalan, botanika, filologiya, geologiya, zoologiya, etnografiya va boshqalar) areologik yo'nalish shaklida mavjuddir. Shuning uchun ham muayyan fanlarda mazkur tushuncha (areal lingvistika (tilshunoslik), areal geologiya, areal botanika va hokazolar) o'z

aksini topgan.

Areal lingvistika va areal tilshunoslik terminlari ko'p jihatdan bir-biriga mos keladi. Chunki, "lingvistika" ko'p hollarda "tilshunoslik" deya tilga olinadi. Shu jihatdan olib qaraganda, "areal lingvistika" va "areal tilshunoslik" bir xil ma'no va mazmun talqiniga ega bo'lishi mumkin¹.

Lekin ayrim manbalarda "areal lingvistika", asosan, dialektologik yo'nalishda ish olib boruvchi tilshunoslik sohasi, "areal tilshunoslik" esa turli mamlakatlarda tilshunoslik fanining rivojlanishi masalalari bilan shug'ullanuvchi yo'nalish sifatida qaraladi.

Hozirgi kunda mavjud bo'lgan ilmiy adabiyotlarda "areal lingvistika" "*hududiy lingvistika*" deb ham talqin qilinayapti. Bunga mos keladigan yana bir yo'nalish "lingvistik geografiya" tushunchasi bilan ham yuritiladi. Bu ikki atama ham ma'no, mazmun va mantiqiylik jihatidan bir-biriga mos kelsa ham, biroq ba'zi bir "lingvistik terminlar lug'atida" da bu ikki tushunchaning farqli tomonlariga alohida to'xtalib o'tilgan.

Masalan, O.S.Axmanova tomonidan yaratilgan "Lingvistik terminlar lug'ati" da "areal lingvistika" ni "hududiy tilshunoslik", "lingvistik geografiya" ni esa "dialektografiya" deb talqin qilingan².

Ba'zi olimlar (B.A.Serebrennikov, A.V.Desnitskaya) "areal lingvistika" terminidan butunlay voz kechishni va uning o'rnida esa "lingvistik geografiya" tushunchasini qo'llashni taklif qiladilar. Bizning fikrimizcha bu ikki atamani bir-biridan farqli holda ishlatish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Bular o'zaro yaqin terminlar bo'lishiga qaramay, "lingvistik geografiya" ni shevalarni xaritalashtirish metodi sifatida, "areal lingvistikani esa lahjalar, tillar va dialektlarni kengroq o'rganuvchi fan sifatida qaralishini ma'qul deb o'ylaymiz.

Lingvistik geografiya tilshunoslik fanining bir yo'nalishi sifatida XIX asr o'rtalarida rivojlana boshladi. Tilshunoslik geografyasi va hududiy tilshunoslikning kelib chiqishiga shvetsariyalik olim Adolf Piktning hissasi

¹Olloyorov Q. Areal lingvistika fanini o'qitish asoslari. --Toshkent: 2020. 6-b.

²Axmanova O.S. Lingvistik atamalar lug'ati. M., 1966; 2-nashr. M. 1969 y

kattadir. Uning tilning uzluksizligi nazariyasi va “to‘lqinlar nazariyasi” (1859) bilan bog‘liq.

Areal lingvistika sheva va lahjalar xususiyatlarining turli joylarda va turli hududlarda tarqalishini o‘ziga xos belgilar, simvollar va raqamlar vositasida xaritada aks ettirish bilan shug‘ullanadigan dialektologiyaning bir bo‘limi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, qardosh tillar va shevalarga xos bo‘lgan xususiyatlarning tarqalish zonalarini kartada ifodalashdir.

Lingvistik geografiya shevalarni o‘rganishning bir metodi hisoblanadi. Bu ikki sohaning obykti bir hisoblansada, ularning o‘rtasida kata farqlar ham mavjud. Dialektologiya shevalarni maqola, monografiya va lug‘atlar yaratish orqali o‘rgansa va xulosalar chiqarsa, lingvistik geografiya esa bularni rizimga tushirib, xaritalashtirish bilan shug‘ullanadi, shuning uchun ham lingvistik geografiyani dialektologiyaning tadqiqot texnikasi deb ham tilga olishadi. Lingvistik geografiyani ikki qismga bo‘lamiz:

1. Umumiy
2. Maxsus

Umumiy lingvistik geografiyada dunyo tillarining geografik xususiyatlari o‘rganiladi. Maxsus lingvistik geografiyada esa muayyan til doirasidagi hududiy farqlar, ya’ni shevalar o‘rganiladi.

Lingvistik geografiya – tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Lingvistik geografiya bo‘yicha G‘arbiy Yevropa va Rossiyada boy tajriba to‘plangan. Xorijiy mamlakatlarning til o‘qitish bo‘yicha tajribalarini o‘rganish va ularning maqbul tomonlarini yurtimizda qo‘llash asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda ham xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida lingvistik geografiyani qo‘llash va bu bo‘yicha yangi ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish muhim ahamiyatga ham egadir.

Areal lingvistika fanining asoschisi nemis olimi I. Shmidt hisoblanadi. Areal lingvistika termini birinchi bor uning “Hind-Yevropa tillarining qarindoshligi” (1872) nomli monografiyasida tilga olingan va bu tushuncha

bo'yicha fikrlar yuritiladi³.

Areal lingvistikaning keyingi taraqqiyoti dialektologik atlaslarning yaratilishi bilan bog'lanadi. Ular nemis olimi G.Venker (1881), fransuz olimlari J.Jilyeron va E.Edmon (1902-1910) hamda boshqa ko'plap tilshunoslar nomlari bilan bog'liq.

Areal lingvistika va lingvistik geografiya tushunchalaridagi farqlarni M.A.Borodina taklif etadi. U areal lingvistikani "areallar teoriyasi" (arealogiya) va lingvistik geografiyani esa "lingvistik atlaslar tuzish amaliyoti" sifatida qarash to'g'ri deya ta'kidlaydi.

D.I.Edelman ham areal lingvistikani hozirgi tillarning yoyilish hodisasini qadimgi areallar asosida o'rganuvchi soha sifatida talqin qiladi.

B.A.Serebrennikov asa "areal lingvistika" terminidan voz kechishni va uning o'rniga esa "lingvistik geografiya" atamasini qo'llashni taklif etadi.

Shu qarashlardan ma'lum bo'ladiki, zamonaviy tilshunoslikda fanning nomi borasida turli fikrlar, turli qarama qarshiliklar mavjud. Ammo o'zbek tilshunosligida bu atamalarni alohida tushunchalarni ifodalashi belgilab olingan. "Lingvistik geografiya" "areal lingvistika" fanining ish ko'rish metodi sifatida qaraladi.

Areal lingvistikaning boshqa fanlar bilan aloqasi

Tabiatda mavjud barcha fanlar qaysidir xususiyatiga ko'ra o'zaro aloqada bo'ladi. Ikkita fan ba'zi jihatlardan bir-birini to'ldiradi. Areal lingvistika ham mustaqil soha sifatida bir necha fanlar bilan aloqadorlikda faoliyat olib boradi. Bu sohalar orasida **dialektologiya** areal lingvistika bilan aloqadorlikda yetakchilik qiladi. Chunki dialektologik ma'lumotlar va dialektal birliklar areal lingvistikaning faktik asosi bo'lib xizmat qiladi. O'zbek dialektologiyasi fani O'zbekiston hududidagi, shuningdek, qardosh respublikalar – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Qaroqalpog'istondagi o'zbek tilida so'zlashuvchilarning turli dialekt, lahja va shevalarni tekshiradi. Ta'kidlash o'rinliki, o'zbek dialektologiyasi ham areal lingvistika kabi o'zbek tili tarixini

³Olloyorov Q. Areal lingvistika fanini o'qitish asoslari. –Toshkent: 2020. 9-b.

o'rganish, uning ayrim noaniq masalalarini yoritish uchun asosiy manbadir. Qadimiy o'zbek yozma yodgorliklarining biz uchun noaniq xususiyatlarini o'rganish bilan (shu sheva materiallari yordamida) aniqlashimiz, to'ldirishimiz mumkin. Dialektlarni o'rganish ham ilmiy, ham amaliy ahamiyatga ega. Shevalarni o'rganish, o'zbek adabiy tilining fonetik, leksik-gramatik normalarni belgilash uchun, shuningdek, o'zbek orfografiya va orfoepiyasini stabillashtirish uchun ham katta yordam beradi. Shu tomondan bu sohalar **hozirgi o'zbek adabiy tili** bilan taqqoslanadi. Undan tashqari areal lingvistikada **til tarixi** bilan ham bog'liqliqdir. Chunki lahja va shevalarni lingvo-geografik usullar bilan o'rganish han birinchi navbatda tarixiy maqsadlarni ko'zga tutadi. Dialektlarni hududiy o'rganish til tarixi uchun ham, xalq tarixi uchun ham boy va qimmatli materiallar beradi. Adabiy tilda allaqachon yo'q bo'lib ketgan yoki ma'lum darajada o'zgarib ketgan leksik elementlar va ayrim grammatik shakllar mahalliy shevalarda saqlanib qolgan bo'lishimumkin. Shu jihatdan areal lingvistika uchun til tarixini o'rganib ish tutish juda ahamiyatlidir. Til tarixiga oid manbalarni o'rganish doirasida Mahmud Qoshg'ariyning ulkan hissasini, qadimiy dialekt va lahjalarni hududiy tomondan tahlil qilishdagi xizmatlarini ta'kidlash o'rinli. U o'zining "Devoni lug'atit-yurk" asarida keltirgan xaritasida Yevrosiyo mintaqasida joylashgan aholi punktlari va xalqlarini belgilab bergan⁴. Ushbu karta haqida juda ko'p turli xil fikrlar mavjud. Ma'lumki, geografik xaritalar haqidagi ta'limot VII-X asrlarida Arab xalifaligida shakllangan buyuk sayohatchi-geograflar tomonidan ishlab chiqilgan. Arab geograflari klassik maktabining boy tajribasidan mohirona foydalangan Mahmud Qoshg'ariy xaritaning o'rtasida turkiy qabilalarning Jarkent, Qashqar, Barsxon, Balasog'un, Yafuk, Ikkio'g'uz, Asbuali, Kumi va Talas kabi shaharlarini qayd etgan. Agar arab kartogroflari yer tasviri sifatida dumaloq xarita chizib, o'rtada Makkani tasvirlangan bo'lsa, Koshg'ariy shu o'xshashlikda dumaloq xarita chizib, unung markaziga Qoraxoniylar davlatining markazlari bo'lgan Qashqar, Barsxon,

⁴Kurbanazarova N.Sh. Areal lingvistikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. – "Globallashuv davrida turkiy shevashunoslikning dolzarb muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent: 2022. B-148.

Balasog'un kabi shaharlarni belgilab qo'ygan. Xaritaning g'arbida franklar istiqomat qiladigan qipchoqlar va rumlar, janubi-g'arbida – Efiopiya, shimolida – Hindiston, sharqda – Xitoy va Yaponiya joylashgan. 1931-yilda Mahmud Koshg'ariy xaritasiga birinchi bo'lib e'tibor qaratgan nemis sharqshunosi I.Markvant tarixchi-kartograf K.Miller va arabshunos G.Gensler bilan birgalikda bitiklarni o'qib, o'z tilga tarjima qilishga harakar qilgan. Keyingi yillarda uni A.German (1935), Sh.Ulkutashir (1946), V.V.Bartold kabi olimlar bu borada izlanishlar olib borgan. Oldingi tadqiqotlarga asoslanib, I.I.Umnyakov mazkur xaritadagi toponimlarni rus tiliga juda muvaffaqiyatli tarjima qildi va bu bilan Koshg'ariy ijodini o'rganishni yangi bosqichga ko'tardi. Tadqiqotchilar Mahmud Koshg'ariy tomonidan turkiy qabilalar yashaydigan hududlar va chegaradosh o'lkalar xaritada aniq chizilganligini bir necha bor qayd etgan.Xususan, akademik I.Yu.Krachkovskiy Mahmud Koshg'ariyning “Devoni lug'atit-turk” lingvistik asari geografiya nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega akanligini yozgan. Bartold esa Koshg'ariy “O'rta Osiyo haqida kitobdan emas, balki o'zi ko'rgan narsadan yozgan yagona arab muallifidir” deb hisoblaydi. I.I.Umnyakov “Matnda tilga olingan barcha turkiy xalqlar xaritaga joylashtirilgan” deb qayd etadi. H.Do'smuhamed XX asr boshlarida – Koshg'ariy ijodini o'lka tilshunosligi bilan bog'lab ko'rgan dastlabki tadqiqotchilardan. U “Islom tarixida hududiy tilshunoslik masalasi hech qachon o'rganilmagan” deb yozgan va Koshg'ariy buni amalga oshirib, butun dunyoda turkiy qabilalar qayerda va qanday joylashganligini ko'rsatib berilganligini ta'kidlagan. Shu bilan birga, A.M.Shcherbak “Mahmud Koshg'ariy devoni (XI asr) misli ko'rilmagan...unda turkiy til grammatikasi bo'yicha o'ziga xos tarzda (arab tili bilan solishtirganda) talqin qilingan keng lisoniy ma'lumotlar, lug'at, fonetika, qabilalarning joylashuvi tafsilotlari, geofrafik va boshqa ma'lumotlar o'rin olgan” deb yozadi. X.Hasanov Mahmud Koshg'ariy ijodi haqida shunday so'z yurutadi: “Koshg'ariy O'rta Osiyoning atoqli o'lkashunosi, geografi, terminologi va kartografidir”. Uning “Devoni lug'atit-turk” asari XI ars O'rta Osiyo va G'arbiy Xitoy madaniyati, hayoti, iqtisodiyoti, tili va geografiyasiga

o'zgarishlar bilan qo'llanuvchi matn), **allyuziyalar** (lot. Allisio – ishora; hazil), **lakuna** (fran. – bo'shliq; chuqurlik; J.P.Vine va J.Darbelen termini), ma'nosi o'z ona tilida so'zlashuvchilar uchungina ma'lum bo'lgan konnotatsiyalarni izohlaydi. Bu terminlar ma'lum bir xalq madaniyatga oid tushunchalarni ifodalashini va xalq madaniyati termini “ma'lum bir hududda yashovchi xalqqa xos madaniyat” ma'nosiga sinonim ekanligini hisobga olib lingvomadaniy tadqiqotlarni amalga oshirishda hudud, joy masalasi anchayin muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda turli hududlarda yashovchi xalqlarning madaniyatlararo muloqot tizimida ularning dunyoqarashi, turmush tarzi muhim ekanligini anglatuvchi “lisoniy nisbat” (tilning nisbiylik nazariyasi) haqida ham qisqacha to'xtalib o'tsak. Edvard Sepir (1884-1939) va Bendjamin Li Uor (1897-1941) tomonidan ilgari surilib, keyinchalik O.G.Pochepsov tomonidan ham ahamiyatli lingvotsentrizm (o'sha vaqtda tilga nisbatan to'laqonli tizim deb qaralgani inobatga olinmoqda: bunda inson tilga emas, til insonga o'z ta'sirini o'tkazadi, deb xulosa qilinardi) deya atalgan lisoniy nisbat to'g'risidagi faraz tilning fikrlash jarayoni, bilish me'yorlari, insonning ijtimoiy xulqiga ta'siri hamda lisonni ison bilan bog'lashga urinish qabilida yuzaga chiqdi. Odamlarning o'z ona tillari prizmasi orqali olamni turlicha ko'rishlari, qabul qilishlari “lisoniy nisbat” nazariyasining negizini tashkil etadi. Nazariya egalari “O'rta Yevropa” (G'arb) madaniyati bilan o'zga madaniyatlar olami (xususan, Shimoliy Amerika hindularining madaniyati) o'rtasidagi farqni tillardagi tafovut bilan tushuntirdilar⁷. Ma'lumotlarimizning boshida aytib o'tganimizdek fanlar va ularning sohalari qaysidir tomonlama bir-biri bilan aloqada bo'ladi. Odatda “ijtimoiy” degan nom ostida birlashgan yo'nalishlar aniq fanlardan farqli ravishda ko'proq boshqa sohalar bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi. Areal lingvistika ijtimoiy fan bo'lib, aloqa tarmog'i ham keng. Ijtimoiylik jihatidan sotsiolingvistika bilan aloqador. Sotsiolingvistika tilshunoslik yo'nalishidagi fan bo'lib, ijtimoiy munosabatlarda tilning tutgan o'rnini, til taraqqiyotini va tilning funksional jihatlarini hamda jamiyat til uchun, til asa jamiyat uchun xizmat

⁷Sh.T.Maxmaraimova. Lingvokulturologiya. – Toshkent: Cho'lpon, 2017. 50-B

qilishini o'rganadi. Professor B.N.Golovin sorsiolingvistika fanini tor va keng ma'noda talqin etishni maqsadga muvofiq deb biladi. Chunki sotsiolingvistika funksional ma'no kasb etib, u til qurilishi taraqqiyotiga xizmat qilishini ta'kidlaydi va tilning vazifaviy xususiyatlari bilan bog'liq degan xulosaga keladi. Ayni paytda, B.N.Golovin sotsiolingvistika terminining 7 xil xususiyatlarini sanab o'tadi va ulardan birini sotsiolingvistkani differensiyaga xoslanishi (hududiy dialektlar, qatlamlar) deb ta'kidlaydi. Bundan tashqari sotsiolingvistika tillarning yer yuzida hududiytarqalishi va qancha aholi foydalanishini tekshiradi. Mutaxassislar yer yuzida mavjud xalqlarga nisbatan tillarning ko'pligini qayd etadilar. Taniqli o'zbek tilshunos olimi, professor B.R.Mengliyev ushbu masalaga doir quyidagilarni qayd etadi: "Dunyoda taxminan 3000 dan (ba'zi manbada keltirilishicha, ular 7000 ga yaqin) ortiq til bor. BMT rasman 2976 tilni qayd etgan⁸. Tillarning ayrimida bir necha o'n, hatto yuz millionlab kishi gaplashsa, ba'zida bir necha ming, yuz, hatto sanoqli kishigina gaplashadi. Xulosa qilib aytganda, areal lingvistika fani ko'plab sohalar bilan hamkorlikda ish ko'radi. Shuning uchun tadqiq doirasi anchayin keng va qiziqarlidir.yuqoridagi fanlarning har biri bilan areal tilshunoslikning bog'liqligini alohida mustaqil tadqiqot sifatida amalga oshirish mumkin.

1.2-§. Dunyo tilshunoshligida areal lingvistik tadqiqotlar tahlili

Areal lingvistika lisoniy hodisalarning ma'lum joylarda, ma'lum hududlarda tarqalishi va shu asosda tillararo aloqalarni o'rganuvchi bir yo'nalish hisoblanadi. Areal lingvistika termini Matteo Julio Bartole (1873-1946) italiyalik tilshunos olim tomonidan XX asrning 40-yillarida tilshunoslik faniga kiritilgan bo'lsa-da, lekin areologik tadqiqotlarjudayam uzoq tarixiga egadir.

Areal lingvistika fani tomonidan amalga oshiriladigan areal tadqiqotlar natijalari lingvistik hamda dialektologik atlaslarda namoyon bo'ladi. Areal lingvistikada amalga oshirilayotgan tekshirish obyekt haqidagi xulosalarda ikki

⁸Kurbanazarova N.Sh. Areal lingvistikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.– "Globallashuv davrida turkiy shevashunoslikning dolzarb muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent: 2022. 150-b

xil tavsiflash usuli alohida turadi.

1. Diaxron tavsiflash.

2. Sinxron tavsiflash.

A.T.Xrolenkoning ta'kidlashicha, sinxron aspektda tavsiflash dialektografiyada, yani hududiy dialektlarning zamonaviy-sinxron holatini kartalashtirish jarayonida yuzaga chiqadi.

Diaxron aspektda areal o'rganish nafaqat tillar va ular oilalarining qarindoshligi masalasini o'rganadi balki muayyan til va shevalarning yuzaga kelishida va shakllanishida qarindosh bo'lmagan tillar bilan ro'y bergan tarixiy aloqalarga ham munosabat bildiradi.

V.Desnitskaya o'zining "Areal lingvistikaning metodologiyasiga doir" deb nomlangan maqolasida "tirik tillarning lingvistik kartalashtirilishi orqaligina ularning areallarini o'rganishda maksimal aniqlikka erishish mumkin",- deya ta'kidlaydi. Aynan shuning uchun ham, tillar va dialektlarni areal o'rganish ishi lingvogeografik metodlar orqali o'zining yuksak darajadagi taraqqiyotiga erisha oladi⁹.

Til materiallari tadqiqotida xaritalashtirish metodini qo'llash, birinchi bor XIX asrga to'g'ri keladi. 1821-yilda K.de-Monbre tomonidan tuzilgan fransuz shevalari chegaralarini belgilovchi karta Fransiya qirollik jamiyatiga taqdim qilinadi. 1923- yilda D.Monye o'zining areal lingvistik karta tuzish g'oyasini ilgari suradi. Bunday keyin Venker va Vredening nemis tili atlas (1876-1926 yillar), Margburgdagi nemis dialektologiyasi Markaziy instituti nashr etgan "Nemis leksikologik atlas", J.Jilyeron va E.Edmonning 12 jildli "Fransuz tili atlas" (1903-1912), K.Yaberg va Y.Yudning 8 jildli Italyan-shveytsar atlas (1928-1940 yillar) o'sha vaqtda maydonga kelgan.

Rossiyada til hodisalarini geografik jihatdan o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmida (I.I.Sreznevskiy, keyinroq esa A.I.Sobolevskiylar tomonidan) boshlangan edi.

⁹Olloyorov Q. Areal lingvistika fanini o'qitish asoslari. –Toshkent: 2020. 16-b.

Rus tilining areal lingvistikasi ustida 1903-yildan boshlab A.A.Shaxmatov tashabbusi bilan tuzilgan Moskva dialektologik Komissiyasi rejali ish olib bora boshlaydi. Bu komissiya 1915-yili “Rus tili Yevropa qismi dialektologik kartalaridan tajriba” (Rus dialektologiyasidan ocherklar, ilovasi bilan) degan karta nashr ettiradi. Bu kartada hozirgi Sharqiy slavyan (rus, ukrain, belorus) tillari va bu tillarning har qaysisining lahjalarga va sheva guruhlariga bo‘linishi ko‘rsatib berilgan. Bunday kartalarning yaratilishi rus areal lingvistikasi fani uchun muhim davrni boshlab berdi.

Moskva dialektologik Komissiyasi rus tilining areal lingvistik atlasini tuzish uchun tayyorgarlik ishlarini boshlab yuboradi. 1935-yilda B.A.Larin, F.P.Filin boshchiligida “Rus tili atlasini” tuzishga kirishiladi va 1944-yilda R.I.Avanesov, B.A.Larin boshchiligida rus tili areal lingvistik atlasini yaratish ustida harakatlar boshlanadi. Chunonchi, 1951-yilda “Moskva sharqidagi Markaziy hududlar rus xalqi shevalari atlasini”, 1952-yilda “Shimoliy-g‘arbiy hududlar rus xalq shevalari atlasini” tuzib chiqildi. Bularning har qaysisi o‘z hajmi bilan chet el katta milliy atlaslariga tengdir hamda rus tili, rus xalqi tarixi va rus millatining shakllanishini o‘rganish ushuni qimmatli material beradi.

“Areal lingvistika” termini ostida, odatda, quyidagi olimlarning faoliyati va imliy izlanishlari nazarda tutiladi: Italiya tilshunosligiga taalluqli neolingvistik ta‘limotning bir qanoti vakillari: M.Bartoli, Dj.Bonfante, B.Terrachini, Dj.Devoto va boshqalar; lingvistik geografiya yo‘nalishida: Y.Koseriu, D.I.Edalmen, B.A.Serebrennikov, N.Z.Gadjieva va boshqalar; til ittifoqlari haqidagi ta‘limot bo‘yicha: V.Vinter, M.Emene, I.Balaj, Y.S.Maslov va boshqalar; dialektologiya, lingvistik geografiya va arxeologiya fanlarining tadrijiy rivoji bo‘yicha M.A.Barodina va uning shogirdlari tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarda tayaniladi¹⁰.

Dunyo tillshunosligida dialektologik atlaslarning dastlabki namunalari XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida yaratilgan. Yevropada tuzilgan eng

¹⁰Olloyorov Q. Areal lingvistika fanini o‘qitish asoslari. –Toshkent: 2020. 9-b.

muhim dialektologik atlaslar quyidagilar: Venker va Vredelarning “Nemis tili atlası” (1876-1926-yillar mobaynida yaratilgan); Marburgdagi nemis dialektologiyasi markaziy institute nasr etgan. “Nemis leksikologik atlası”; Qiperon va Edmonning 12 jildli “Fransuz tili atlası”(1902-1912-yillar mobaynida yaratilgan); Yaberg va yudning 8 jildli “Italyan-Shveysar atlası” (1928-1940-yillar mobaynida yaratilgan). Moskvada tuzilgan “Moskva shahridagi markaziy oblastlar rus xalqi shevalari atlası” (1957-yili nashr etilgan); “Shimoli-g‘arbiy oblastlar rus xalq shevalari atlası” (nashrga tayyorlangan) va respublikalarda nashr etilgan “Ukrayin tili xalq shevalari atlası”, “Belarus tili xalq shevalari atlası” va boshqalar¹¹.

XIX asrgacha olib borilgan lingvistik tadqiqotlarda tillarda mavjud bo‘ladigan xususiyatlar muayyan tilning o‘zigagina xos bo‘ladi deb hisoblangan. Dialektlarni o‘rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda ham ma‘lum bir sheva o‘zigagina xos xususiyatlardan iborat bo‘ladi deb hisoblangan.

XIX asrning o‘rtalari va ikkinchi yarmiga esa, lingvistik tadqiqotlar yana ham taraqqiy topa boshladi va aniqlik kasb eta bordi. Buning natijasida muayyan bir tilda yoki dialektda mavjud bo‘ladigan lingvistik xususiyatlar va hodisalar faqat o‘sha til yoki shevaga tegishli bo‘lib qolmasligi aniqlangan. Jumladan, unga yaqin bo‘lgan areallarda albatta shunday til faktlari mavjud bo‘lishi ilmiy dalillar bilan isbotlab berildi.

Bunday lingvistik faktlar real ijtimoiy-siyosiy geografik xaritalarga bog‘liq bo‘lmagan holda namoyon bo‘ladi. Ana shunday lingvistik xususiyatlarning umumlashgan areallarni *izoglossa* atamasi bilan yuritish qabul qilingan. Har xil sheva va lahjalardagi uchraydigan bir xil til hodisalari *izoglossa* sifatida kartalashtiriladi.

Izoglossa termini birinchi bo‘lib XIX asr o‘rtalarida latish tili bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan Avgust Bilenshteyn tomonidan tilshunoslik sohasiga olib kirilgan. Undan keyin italyan lingvisti Mateo Julio Bartolli tadqiqotlari mazkur atamaning keng yoyilishiga sabab bo‘lgan.

¹¹Murodova N. O‘zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal talqini.- Toshkent: Fan, 2007. 60-b.

Izoglossa termini grek tilidan olingan bo'lib, "isoglosse" isos-"tekislik, maydon" va glosse-"nutq, til" ma'nolaridagi so'zlar birikuvidan hosil bo'lgan.

O'zbek dialektlarida umumturkiy izoglossalar mavjudligini dastlab 1930-yillardayoq, Y.D.Polivanov ko'rsatibotgan edi. Mazkur atama o'zbek tilshunosligida ham areal (geografik) kartada bir xil lingvistik xususiyatlariga ega bo'lgan hududlarni birlashtiruvchi chiziq (линия)ni anglatadi.

Dunyo tilshunosligida XIX-XX asrlarda turkiy tillarning mukammal tasniflarini bergan akademik V.Radlov, V.Abogorodinskiy, N.A.Baskakov tasniflarida ham hududiy-geografik nomlanishni uchratish mumkin. Chunonchi, V.V.Radlov turkiy tillarning sharqiy, g'arbiy, O'rta Osiyo va janubiy kabi guruhlarini, akademik F.E.Korsh shimoliy, g'arbiy, sharqiy, aralash tipli guruhlarini, akademik M.Samoylovich janubiy-g'arbiy, janubiy-sharqiy, shimoli-g'arbiy, shimoliy-sharqiy kabi guruhlarini, N.A.Baskakov esa g'arbiy xun va sharqiy xun tarmoqlarini ajratadi. Ko'rinib turibdiki, lingvistik tadqiq va tasnif jarayonida geografik (hududiy) tushunchalardan foydalanish ancha uzoq tarix hamda an'anaga ega.

Turkiy tillar, jumladan, o'zbek lingvoareologiyasi bo'yicha G.F.Blagovanning "Turkiy tillarda turlanishning areal-tarixiy tadqiqi" (janubiy-sharqiy mintaqada) (Moskva, "Nauka" 1982, 304 b) tadqiqoti diqqatga sazovordir¹².

Ozarbayjon Fanlar akademiyasining akademigi prof. M.Sh.Shiraleyev ozarbayjon tili sharqiy sheva va dialektlar gruppasining dialektologik atlasini, G.Bakinova qirg'iz shevalarining atlasini, X.Doniyorov, R.Qo'ng'urovlar Samarqand viloyati shevalarining lingvistik atlasini tuzishga kirishganlar

1.3-§. O'zbek tilshunosligida areal lingvistik tadqiqotlar tahlili

Areal lingvistika tilimiz hamda shevalarimizning nafaqat hozirgi zamonaviy ko'rinishini, balki uning tarixiy ildizlari, tarqalish areallari, qardosh va qardosh bo'lmagan tillar bilan aloqalari kabi jihatlarni tekshiradi, shular

¹²Murodova N. O'zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal tadqiqi -T., Fan. 2006. 220-b.

borasida bahs yuritadi. Bugungi kunda milliy tilimiz va shevalarimizning tarixiy va zamonaviy ko‘rinishlarini qiyoslash, ularni nozik farqlarigacha aniqlab, lingvistik atlaslarni yaratish hamon o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

O‘zbek tilshunosligida areal lingvistik tadqiqotlar qadimgi davrlarga borib taqalsa ham, Alisher Navoiy ijodida bu yo‘nalishning o‘ziga xos, yorqin namunasini ko‘rishimiz mumkin. Alisher Navoiy lug‘atchilik va grammatika sohasidagi yarim asrlik tajribasini “Muhokamat ul lug‘atayn” asarida umumlashtirdi. Bu asarda Navoiy eski o‘zbek tili bilan fors-tojik tilini bir-biriga chog‘ishtirdi va noqardosh tillarni qiyosiy o‘rganish metodini boshlab berdi. Hazrat tillarni qiyoslab o‘rganish bilan birga asarda umumiy tilshunoslikka doir qarashlarini bayon qiladi. Asarda til va tafakkur, tillarning kelib chiqishi haqidagi fikrlarni olg‘a surdi.

Mir Navoiy “Muhokamat ul lug‘atayn” asari bilan 1499-yilda qarindosh bo‘lmagan, ya’ni turli til oilasiga mansub tillarni muqoyisa qiladi. Ikki tilni qiyoslar ekan, Navoiy o‘zbek tilining so‘z qo‘llash borasida ustunliklarini ko‘rsatadi. “Muhokamat ul lug‘atayn” dan o‘zbek tilida so‘z ma’no qirralarining tarixi haqida qimmatli fikrlar olish mumkin.

Navoiyning “Muhokamat ul lug‘atayn” asarini biz to‘laqonli arealogik tadqiqot deb ayta olmaymiz. Shu bilan bir qatorda ushbu asarda tillararo munosabatlar qiyosiy tarzda o‘rganilgan. Bilamizki, arealogik tadqiqot ikki yo‘nalishda ish ko‘radi. Birinchi yo‘nalishimiz tillararo izoglossalarga suyansa, keyingisi dialektlararo munosabatlarning izoglossalarini asosiy manba qilib oladi. Shundan kelib chiqqan holda, buyuk olimning ushbu asarlaridan arealogiya uchun amaliy jihatda foydalanishimiz mumkin.

Qardosh bo‘lmagan tillarning o‘zaro ta’sir qilishi, to‘qnash kelishi uchun ularning yaqin arealda joylashgan bo‘lishi birlamchi mavjud bo‘ladigan hodisa sanaladi. Ma’lumki, fors-tojik tili bilan o‘zbek tili bitta oilaga mansub emas. Ammo aholining lisoniy arealida ikki til uchun ham umumiylik belgilarini namoyon qiluvchi aralash til vujudga kelgan.

“Muhokamat ul lug‘atayn”ga e’tibor qilsak: Yana ot anvoyidaki,

tubuchoq va *arg'umoq* va *yaka* va *yobu* va *totu*, yo'sunliq-borini turkcha-o'q ayturlar. Va otning yoshin dag'i ko'prakin turkcha ayturlar. Bir *qulumni* "kurra" derlar. O'zga: *toy* va *g'o'nan* va *do'nan* va *tulan* va *chirg'a* va *lang'a* deguncha fasihiroqlari turkcha derlar va ko'pragi muni ham bilmaslar.

Ushbu fikrda *tubuchoq*, *arg'umoq*, *yaka*, *yobu*, *totu*, *toy* va *g'o'nan* *do'nan*, *tulan*, *chirg'a*, *lang'a* so'zlarining irradiatsiyasi va innovatsion markazi turk tili ekanligi aytilmoqda. Turk tilida ham, fors-tojik tilida ham umumiy izoglossalar mavjud bo'lsada, turk tilida ushbu izoglossalarning nihoyatda ko'p ekanligini uqturadilar. Masalan, Va otning iyarin agarchi "zin" derlar, ammo ko'prak ajzosin, misli: *jibilgir* va *hano* va *to'qum* va *jorlig'* va *ularchog'* va *g'anjug'a* va *jilbo'r* va *qushqun* va *qantar* va *tufak* va *to'qa* yo'sunluq ko'pin turkcha ayturlar va qamchini agar "tozyona" derlar, ammo buldurgasin va chubchurg'asin turkcha ayturlar. Va *jiba* va *javshan* va *ko'ha* va *qolg'anduruq* va *qorbichi* va *kechim* va *oha* yo'unluq urush asbobin ham turk tili bilan ayturlar¹³.

Arealogiyada o'tish zonalari aynan tillar o'rtasida yuzaga keladi. Mazkur tillarning o'tish zonalari ularning hududiy yaqinliklari bilan birga, tarixiy-ijtimoiy xarakter bilan ham izohlahadi. O'tish zonalarining bir-biriga ta'siri masalasi, bugungi kun areal lingvistikasi oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan "Muhokamat ul lug'atayn" asari tadqiqot obyekti bo'lib hisoblanadi.

Forslar uluq qardosh va kichik qardoshni ikkalasini "brodar" derlar va turklar ulug'ni- "og'a" va kichikni "ini" derlar, va ular ulug', kichik qiz qardoshniham "xohar" derlar. Va bular ulug'ni- "egachi" va kichikni "singil" derlar. Va bular otaning og'a-inisin "opag'a" derlar. Va onaning og'a-inisin- "tag'oyi" (derlar).

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, Navoiy turk tilida arealogik izoglossalarning ko'pligini ta'kidlab ko'rsatadi va bu izoglossalar so'z mazmunining aniq, izchil va tugal ifidalanishiga ko'maklashadi.

¹³Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 16-tom - Toshkent: Fan, 2001

Buyuk Navoiy areal lingvistikaga amaliy jihatdan ko'rsatib berib, bu yo'nalishning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shdi. Areal lingvistikaning o'zbek tilshunosligida qo'llanishi bevosita ushbu ijodkor nomi bilan bo'g'langanligi ham bejiz emasligi misollardan ko'rinib turibdi.

O'zbek tilshunosligining hali yosh sohalaridan biri o'zbek dialektologiyasi o'zining boshlang'ich etapi-dialektografiya bosqichini o'tab, endi u to'plangan boy material-baza asosida hozirgi zamon dialektologiyasining nazariy masalalarini ishlash, shu bilan birga lingvistik geografiya masalalari bilan shug'ullanish bosqichiga o'tdi.

O'zbekistonda dialektologik ishlar uch yo'nalish bo'yicha ilmiy ish olib bormoqda. Bular: o'rganilmagan o'zbek shevalarini monografik tadqiq qilish, o'zbek shevalari lug'atini tuzish va o'zbek tili dialektal atlasini yaratishdir.

O'zbek tili shevalarini monografik o'rganish sohasida anchagina ishlar qilindi. Bunday kuzatishlarning natijalari maxsus monografiyalar, maqolalar va to'plamlarda e'lon qilindi. Ayrim tekshirishlarda keltirilgan leksik materiallar va ekspeditsiyalarda to'plangan materiallar asosida o'zbek shevalarining lug'ati tayyorlandi va nashr etildi.

O'zbek shevalarini lingvistik geografiya metodi bilan o'rganish ishi 1944-yilda boshlangan edi. Prof. A.K.Borovkov o'zbek tili shevalari atlasini yaratish maqsadida "O'zbek sheva-lahjalarini tekshirishga doir savol-javoblar" anketasini tuzdi. Shu anketa asosida 1945-1950-yillar mobaynida Farg'ona vodiysi shevalaridan materiallar to'plandi. Lekin o'sha vaqtlarda respublikada dialektologik ishlarni birlashtiruvchi yagona markazning yo'qligi bu materiallarni ishlab chiqish va kartalarga ko'chirish imkonini bermadi. Oradan 20 yil o'tgandan keyin 1965-yildan boshlab, o'zbek shevalari xususiyatlarini kartalashtirish ishi yana kun tartibiga qo'yildi va dialektal materiallar to'plana boshlandi.

O'zbek dialekrlarini kartalashtirish ishini prog. V.V.Reshetov boshlab berdi. U Toshkent viloyatining bir qismini lingvistik tekshirdi va Ohangaron vohasidagi shevalarda uchraydigan fonetik, leksik va grammatik farqlarni

kartaga ko'chirdi. O'zbek dialektologiyasida birinchi bo'lib o'zbek qurama shevalarining 49 ta lingvistik kartasini tuzdi.

M.Mirzayev 1955-yilda "Buxoro viloyatidagi o'zbek shevalarini o'rganish uchun anketa", professor A.Aliyev 1964-yilda "Namangan dialekti bo'yicha material to'plovchilar uchun anketa", 1976-yilda professor A.G'ulomov, A.Aliyev, K.Nazarovlar tomonidan "O'zbek tilining mahalliy shevalari bo'yicha material to'plovchilar uchun metodik qo'llanma" yaratdilar¹⁴.

O'zbek shevalarini lingvo-geografik metod asosida ilmiy-tadqiq qilishda A.Shermatov samarali hissa qo'shdi. U "Qashqadaryo guruh shevalari kartasi"ni tuzib chiqdi. Bu tadqiqot 167 karta bilan o'z yakunini topdi.

Keyingi yillarda Orol bo'yi o'zbek shevalari, janubiy va shimoliy Tojikistonda yashovchi o'zbek shevalari, janubiy Qozog'istondagi O'zbek shevalarining lingvistik kartasi ustida qizg'in ish olib borildi.

O'zbek tili dialektologik atlasini tuzish o'zbek adabiy tili imlo va talaffuz nomlarini fonetik tuzilishi sistemasi, grammatik qurilishi leksik tarkibini nomlashtirishda aniqliklar kiritish uchun; o'zbek shevalarining mavjud tasniflarini to'ldirish, mukammallashtirish, adabiy til va tayanch shahar shevalarining kundalik ta'siri natijasida adabiy tilning o'zbek shavalararo normallashtirishini tezlashtiradi.

O'zbek dialektologlari o'z milliy tillari atlasini yaratish bilan bir qatorda, qardosh dialektologlar bilan birga "Turkiy tillar atlasini"ni ham tuzishni maqsad qilganlar. Bunday atlasni tuzish akademik V.M.Jirmunskiy tashabbusi bilan boshlangan edi.

Uning so'roqligi va programmasi 1960-70-yillarda bir necha bor muhokama qilinib, tasdiqlandi.

Har 3-4 yilda turkiy tillar atlasini yaratish bo'yicha Xalqaro miqiyosida konferensiyalar, yig'inlar o'tkazilib turilgan.

Hozirgi paytda Xorazm shevalari kartasini (prof. F.A.Abdullayev), Buxoro gruppasi shevalari kartasini (prof. M.Mirzayev), Namangan gruppasi

¹⁴Murodova N. O'zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal tadqiqi - T., Fan. 2007. 193-b.

O'zbek dialektologiyasida yirik monografik asarlarning yuzaga kelishi tufayli endilikda shevalarimizni o'rganishning qiyosiy-tarixiy va tipologik tadqiqotlarning hozirgi zamon aniq va izchil metodlari bilan tekshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu hol til hodisalarining tarqalish chegaralarini aniqlab beruvchi, lingvogeografik metodlar asosida ish ko'ruvchi "areal lingvistika" fani bo'yicha ilmiy asosda tekshirishni taqozo qiladi hamda xalq shevalari atlasini yaratish masalasini galdagi vazifa qilib, kun tartibiga qo'yadi.

O'zbek tilshunos olimlari Y.D.Polivanov, G'.Olim Yunusov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, A.G'ulomov, S.Ibrohimov, F.Abdullayev, M.Mirzayev, A.Aliyev va ularning shogirdlari tomonidan o'zbek shevalari yuzasidan olib borilgan bir qator ilmiy izlanishlarda o'zbek dialektologiyasining lingvo-geografik va areal tadqiqotlari uchun manba yaratildi.

O'zbek dialektlarida umumturkiy izoglossalar mavjudligini dastlab 1930-yillardayoq, Y.D.Polivanov ko'rsatib bergan edi. 1944-yilda professor A.K.Borovkov tomonidan "O'zbek sheva-lahjalarini tekshirishga doir savol-javoblar" anketasi tuzildi.

Professor M.Reshetov 1955-yilda "Buxoro viloyatidagi o'zbek shevalarini belgilab, qurama o'zbek shevalarining 49 ta areal kartasini tuzgan.

Professor M.Mirzayev 1955-yilda "Buxoro viloyatidagi o'zbek shevalarini o'rganish uchun anketa" tuzib, ko'pgina ilmiy muassasa va viloyatlarga tarqatgan edi.

Filologiya fanlari doktori A.Aliyev 1964-yilda "Namangan dialekti bo'yicha material to'plovchilar uchun anketa" chop ettirdi.

Professor A.G'.G'ulomov rahbarligida 1976-yilda A.Y.Aliyev, K.N.Nazarov tomonidan "O'zbek tilining mahalliy shevalari bo'yicha material to'plovchilar uchun metodik qo'llanma" yaratildi.

O'zFA A.Navoiy nomli Til va adabiyot institutining o'zbek dialektologiyasi bo'limida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining

haqiqiy a'zosi Sh. Shoabdurahmonov boshchiligida Toshkent viloyati shevalari atlasini tuzilgan¹⁵.

O'zbek tilshunosligining hali yosh sohalaridan biri o'zbek dialektologiyasi o'zining boshlang'ich etapi-dialektografiya bosqichini o'tab, endi u to'plangan boy material-baza asosida hozirgi zamon dialektologiyasining nazariy masalalarini ishlash, shu bilan birga lingvistik geografiya masalalari bilan shug'ullanish bosqichiga o'tdi.

O'zbekistonda dialektologik ishlar uch yo'nalish bo'yicha ilmiy ish olib bormoqda. Bular: o'rganilmagan o'zbek shevalarini monografik tadqiq qilish, o'zbek shevalari lug'atini tuzish va o'zbek tili dialektal atlasini yaratishdir.

O'zbek tili shevalarini monografik o'rganish sohasida anchagina ishlar qilindi. Bunday kuzatishlarning natijalari maxsus monografiyalar, maqolalar va to'plamlarda e'lon qilindi. Ayrim tekshirishlarda keltirilgan leksik materiallar va ekspeditsiyalarda to'plangan materiallar asosida o'zbek shevalarining lug'ati tayyorlandi va nashr etildi.

O'zbek tilshunosligida Qosim Mamajonov, Yo'ldosh Ibrohimov, Nigora Murodovlarning doktorlik disertatsiyalari himoya etganliklarini va monografiya, maqolalar e'lon qilganliklarini e'tiborga olish zarur.

Arealogiyada o'ziga xos tadqiq metodi, ya'ni ish usuli va o'ziga xos tadqiq ob'ekti borligini ko'pgina olimlar inkor etadilar. Ularning fikrini to'la-to'kis asosli deb aytish mumkin emas. Chunki arealogiya tadqiq manbai sifatida adabiy til va shevalarda u yoki bu lisoniy birlikning tadqiqi bilan ish ko'radi. Bu jihatdan uning tadqiq manbai adabiy til va sheva unsurlarining tadqiqi va tavsifi bilan tanishadi. Ikkinchi tomondan arealogik tadqiqotlarda adabiy til va sheva hodisalari qiyoslanadi. Bu jihatdan arealogiyaning tadqiq manbai qiyosiy tilshunoslik tadqiq manbai va usuli bilan to'qnashadi. Qiyosiy va tavsifiy-sixronik tilshunoslik tadqiq manbai va usuli bilan areal lingvistikaning tadqiq manbai hamda usulida bunday umumiylikning mavjudligi, arealogiyaning o'z tadqiq manbai va usuli (metodi) borligini ko'rsatadi. Qiyosiy tilshunoslik,

¹⁵Shermatov A. Lingvistik geografiya nima? - Toshkent: Fan, 1981. B-58.

tarixiy tilshunoslik, areal lingvistika lisoniy hodisalarning tadqiq va tavsifiga atomistik usul (lisoniy hodisani sistemadan uzilganholda) bilan yondashadi. (Jumladan, "a" ma'lum bir pozitsiyada "o"ga o'tishi; qaratgich va tushum kelishigi qo'shimchasining shaklan farqlanmasligi yoki o'rin-paytkelishigi qo'shimchasi o'rnida jo'nalish kelishigi qo'shimchasining qo'llanilishi bir-biriga bog'liq ravishda emas, balki alohida-alohida hodisalar sifatida tadqiq va tavsif etiladi). Shuningdek, qiyosiy tilshunoslikda ko'rganimizdek, alohida-alohida olingan lingvistik hodisalar arealogiyada ham qiyoslanadi. Lekin arealogik tadqiqotda makon tushunchasi ham mavjud. Arealogik makon dialektologik makon tushunchasidan batamom farq qiladi. Dialektologiyada makon tushunchasi tom ma'noda ma'lim bir hudud, mintaqa, geografik hudud bilan mos keladi (masalan: Buxoro shevasi, Toshkent shevasi). Dialektologik tadqiqotda bir makondagi turli xil til birliklarining bir davrda bir butunlikning tarkibiy qismlari sifatida yashashi tadqiq etiladi. Areal lingvistikada bir hodisaning turli hudud va mintaqalarda tarqalishi diqqat markazda turadi. Shuning uchun arealogik makon dialektologik (geografik) makondan tubdan farq qiladi (chunonchi: tushum va qaratgich kelishiklarining shaklan mos kelishi O'zbekistonning qarluq-uyg'ur shevalari uchun xos deb talqin etilsa, bu hodisaning areali sifatida O'rxun-Enasoy, qumuq va yoqut tillari tarqalgan mintaqalar nazarda tutiladi. Chunki bu hodisa mazkur tillarda ancha keng tarqalgan). Shuning uchun areal lingvistikada makon deganda geografik hudud emas, ma'lum bir hodisaning tarqalish hududi (hududlari) tushuniladi. Dialektologiyada hodisa makon orqali (ya'ni, shu mintaqada qanday hodisalar bor) tavsiflansa, areal lingvistikada makon hodisa orqali beriladi (ya'ni, bir hodisaning turli tarqalish makonlari). Boshqacha, qilib aytganda, dialektologiyada bir makondagi turli hodisalar (makon-umumiy, hodisalar-xususiy) tadqiq etilsa, arealogiyada bir hodisaning turli makonlari (hodisa-umumiy, hududlar-xususiy) o'rganiladi.

Areal tadqiq usulining qiyosiy, xususan, qiyosiy-tarixiy tilshunoslikdan farqi shundaki, qiyosiy tilshunoslikda tipologik o'xshash va noo'xshash

hodisalar qiyoslanaveradi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikda esa faqat o'zaro o'xshash hodisalar turli davrlar asosida qiyoslanadi. Areal lingvistikada esa bir hodisaning ma'lum bit davrdagi o'xshashligi tadqiq etiladi (shu hodisaning turli davrlardagi o'xshashligi tarixiy arealogiyada o'rganiladi). Areal lingvistikaning tadqiq usuli va manbaida bo'lgan bunday farqlar uning tavsifiy, qiyosiy, tarixiy tilshunosliklar bilan bir qatorda til haqidagi fanning o'ziga xos alohida tarmog'i mavqeida ekanligini asoslaydi. Shunday qilib, areal lingvistikaning tadqiq manbai va tadqiq metodini quyidagicha ta'riflash mumkin:

Areal tadqiqotlarning manbai sifatida ma'lum bir davrda olingan lisoniy hodisa (qonuniyat)ning qarindosh va yondosh tillar amalda bo'lgan turli hududlarni aniqlash hamda bu hududlarni bir arealga, lisoniy hodisaning tarqalish maydoniga birlashtirishdir. Uning tadqiq usuli sifatida turli mintaqalardagi til shevalarida o'xshash hodisa (qonuniyat)larni aniqlash va ularning qo'llanish maydonini aniq belgilashdan iboratdir¹⁶.

Bundan tashqari areal lingvistikaning oldida ma'lum bir hodisa (qonuniyat)ning tug'ulishini, vujudga kelish markazini, unung turli yo'nalishlarga tarqalishini (irradiatsiyasini) va bu hodisaning turli mintaqalardagi o'ziga xosligini (innovatsiyalarini) belgilash vazifasi ham turadi.

Areal lingvistika asosiy tushunchalari va ish usullaridan biri *izoglossa* (gr.isos o'xshash, bir xil va gr.glossa til hodisasi) ayni bir lisoniy hodisaning tarqalish chegaralarini belgilovchi chiziq, hudud chegaralaridir.

Areal lingvistikani tilshunoslikning alohida tarmog'i sifatida vujudga keltirgan ijtimoiy zarurat ham, areal lingvistikaning nihoya maqsadi ham mana shunday xaritalar tuzish va ularni uqa bilish madaniyatini shakllantirishdan iborat.

Rejamiz yakunida xulosa qila olamizki, areal lingvistika o'zining tadqiq maqsadi, usuli (metodi) va manbaiga ega bo'lgan tilshunoslikning alohida bir tarmog'idir.

Arealogik tadqiqotlar o'zbek tilshunosligida nisbatan yangi yo'nalish

¹⁶Murodova N. O'zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal tadqiqi - T.: Fan. 2006. 222-b.

bo'lganligi va shu kungacha o'zbek lingvistik atlasini tuzilmaganligi bu fanning ta'lim tizimida o'rganilishini dolzarb masalalardan biriga aylantirdi.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, areal lingvistika sheva va lahjalar xususiyatlarining turli joylarda va turli hududlarda tarqalishini o'ziga xos belgilar, simvollar va raqamlar vositasida xaritada aks ettirish bilan shug'ullanadigan dialektologiyani bir bo'limi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, qardosh tillar va shevalarga xos bo'lgan xususiyatlarning tarqalish zonalarini kartada ifodalashdir.

Areal lingvistika fani tomonidan amalga oshiriladigan areal tadqiqotlar natijalari lingvistik hamda dialektologik atlaslarda namoyon bo'ladi. Areal lingvistika termini ostida M.Bartoli, Dj.Bonfante, B.Terrachini, Dj.Devoto va boshqalar; lingvistik geografiya yo'nalishida: Y.Koseriu, D.I.Edalmen, B.A.Serebrennikov, N.Z.Gadjieva va boshqalar; til ittifoqlari haqidagi ta'limot bo'yicha: V.Vinter, M.Emene, I.Balaj, Y.S.Maslov va boshqa olimlarning faoliyati va ilmiy izlanishlari nazarda tutiladi.

O'zbek tilshunosligida areal lingvistik tadqiqotlar qadimgi davrlarga borib taqaladi. Alisher Navoiy ijodida bu yo'nalishning o'ziga xos, yorqin namunasini ko'rishimiz mumkin.

II BOB. AREAL LINGVISTIKA TERMINOLOGIYASI VA LINGVISTIK XARITALAR SHARHI

2.1-§. Asosiy terminlar sharhi va tavsifi

Areal lingvistik tadqiqotlarda qo'llaniladigan ayrim terminlar

Mos hodisalar – umummilliy til strukturasi zvenolari bo'lib, har xil dialektlarda o'zining turli bo'laklari (a'zolari) bilan ishtirok etgani holda shevalararo farqlarini vujudga keltiradi. Shuning uchun ham mos hodisalar hamma vaqt ikki a'zoli (ikkinchi a'zosi nolga teng bo'lgan holda ham) yoki ko'p a'zoli bo'ladi. Masalan:

1. Ikki a'zoli.
2. Uch a'zoli.
3. Ko'p a'zoli.

Areallar. (Lotincha *arealis* – maydon, bo'shliq). Mos hodisalar ayrim bo'laklarining lingvistik kartada tarqalish zonasini, ya'ni tilning dialektal farqlanishini anglatadi.

Til zonalarining tarixiy taraqqiyotida hamma dialektlarga xos xarakterli xususiyatlar – areallar qisqarishi va ularning mayda-mayda zonalarga bo'linib ketish qonuniyati ham lingvogeografik tadqiqot usuli natijasida aniqlanadi.

Ma'lumki, qarluq, qipchoq va o'g'uz turkiy tillar dialektlarining O'zbekiston hududida ixchamlashib, faqat o'zbek tilining qarluq, qipchoq va o'g'uz dialektlari zonasiga aylanib qolganligi o'zbek dialektologlari tomonidan dialektologik va lingvogeografik tadqiqotlarda aniqlab chiqilgandir.

Areal sinonimlar. Areal sinonimlar atamasi ostida adabiy tilga oid so'zlarning ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan varianlarning har xil hududlarda har xil shaklda tarqalishi tushuniladi. Masalan, "ona" so'zining *buvi* varianti Andijon, O'sh, O'zgan kabi shaharlarda, *ayi*, *ana* so'zining Toshkent va Sirdaryo areallarida, *aba* varianti Namangan guruh shevalarida, *ena* varianti o'zbek qipchoq shevalarida, *ona* varianti Qashqadaryo, Surxondaryo areallarida, xususan, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlarida ko'p tarqalgandir.

Garchi bu soʻzlarning har qaysisi maʼlum geografik chegara bilan xarakterlansa ham, ular maʼno jihatidan oʻzaro sinonim hisoblanadi. Maʼlum geografik areal vakili bu soʻzlardan bittasini ishlatgan holda, ularning boshqa variantlarining maʼnosini ham tushunadi.

Areal sinonimlar oʻzbek shevalari joylashgan hududni markaziy (Toshkent, Guliston, Jizzax), shimoliy (Turkiston areali) shevalari, shimoliy-sharqiy (Fargʻona areallari), janubiy-sharqiy (Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo), shimoliy-gʻarbiy (Urganch, Toʻrtkoʻl, Toshhovuz) kabi areallarga ajratish bilan birga adabiy til va dialektlar orasidagi oʻzaro lingvistik taʼsir va munosabatlarni belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Surxondaryo shevalarida *avul qidirip ketmaq, avulga ketmaq* iboralari mavjud boʻlib, bu iboralar mehmonga borish maʼnosini bildiradi. Bunda umuman mehmonga borish, qishloqqami, shahargami, qarindoshlarnikigami, qayerga mehmonga ketgan boʻlsa, unga nisbatan *avulga ketti* yoki *avul qidirib ketti* iborasi qoʻllaniladi.

Izoglossa. Mos hodisalarning u yoki bu aʼzosi, boʻlagi tarqalgan eng chet nuqtalarni tutashturuvchi atlas kartasidagi chiziq.

XIX asrgacha olib borilgan lingvistik tadqiqotlarda tillarda mavjud boʻladigan xususiyatlar muayyan tilning oʻzigagina xos boʻladi deb hisoblangan. Dialektlarni oʻrganish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda ham maʼlum bir sheva oʻzigagina xos xususiyatlardan iborat boʻladi deb hisoblangan.

XIX asrning oʻrtalari va ikkinchi yarmiga kelib esa, lingvistik tadqiqotlar yana ham taraqqiy topa boshlaydi va aniqlik kasb eta bordi. Buning natijasida muayyan bir tilda yoki dialektda mavjud boʻladigan lingvistik xususiyatlar va hodisalar faqat oʻsha til yoki shevaga tegishli boʻlib qolmasligi aniqlangan. Jumladan, unga yaqin boʻlgan areallarda albatta shunday til faktlari mavjud boʻlishi ilmiy dalillar bilan isbotlab berildi.

Bunday lingvistik faktlar real ijtimoiy-siyosiy geografik xaritalarga bogʻliq boʻlmagan holda namoyon boʻladi. Ana shunday lingvistik xususiyatlarning umumlashgan areallarni *izoglossa* atamasi bilan yuritish qabul

qilingan. Har xil sheva va lahjalardagi uchraydigan bir xil til hodisalari *izoglossa* sifatida kartalashtiriladi.

Izoglossa termini birinchi bo‘lib XIX asr o‘rtalarida latish tili bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan Avgust Bilenshteyn tomonidan tilshunoslik sohasiga olib kirilgan. Undan keyin italyan lingvisti Mateo Julio Bartolli tadqiqotlari mazkur atamaning keng yoyilishiga sabab bo‘lgan.

Izoglossa termini grek tilidan olingan bo‘lib, “isoglosse” isos – “tekislik, maydon” va glosse – “nutq, til” ma’nolaridagi so‘zlar birikuvidan hosil bo‘lgan.

O‘zbek dialektlarida umumturkiy izoglossalar mavjudligini dastlab 1930-yillardayoq, Y.D.Polivanov ko‘rsatibo‘tgan edi. Mazkur atama o‘zbek tilshunosligida ham areal (geografik) kartada bir xil lingvistik xususiyatlariga ega bo‘lgan hududlarni birlashtiruvchi chiziqni anglatadi.

Masalan, Tojikistonning Xo‘jand viloyatidagi ko‘pchilik shevalarning O‘zbekistondagi shevalar bilan o‘zaro umumiy jihatlari ham mazkur areallarning izoglossalarini tashkil qiladi.

Keyingi davrlarda yuzaga kelgan areal lingvistik tadqiqotlarda izoglossalar nafaqat chegaradosh hududlarda, balki ancha uzoq bo‘lgan areallarda ham uchrashi mumkinligi isborlab berildi. Jumladan, O‘zbek shevalari o‘g‘uz guruhiga mansub dialektlarning umumiy izoglossalari faqat Xorazm viloyatidagina emas, Buxoro viloyatining Qorako‘l va Olot tumanlari areallarida mavjud bo‘lgan shevalarda, shuningdek, Qaraqalpog‘istonning Beruniy va To‘rtko‘l tuman markazlarida va ayrim qishloqlarida, hatto Qozog‘istonning Chimkent viloyati Sayram Mankent qishlog‘ida ham mavjud ekanligi aniqlangan.

Ayrim izoglossalarning ko‘proq territoriyaga tarqalishida xalqlarning qadimda mavjud bo‘lgan aloqa yo‘llari va daryo oqimlari katta rol o‘ynagan. Areal kartalashtirilgan hudud turli tomonga tarqalgan izoglossalarni o‘z ichiga olganda har xil lingvistik hodisalarning tarqalishi ba‘zan bir-biriga mos kelmay qolishi mumkin. U holda o‘xshash bo‘lmagan ayrim guruh izoglossalar to‘dasini, yig‘indisini tashkil etgan areal aniqlanishi lozim bo‘ladi.

ulardan boshqa tip shevalarga o'tib bormoqda.

Irradiatsiya hodisaning tarqalishini anglatuvchi tushuncha bo'lib, arealning xarakterli belgilaridan biridir. Masalan: o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi "-da" Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo shahar tip shevalariga adabiy til ta'sirida to'siqlarga uchramasdan kirib borish yo'li bilan tarqalmoqda. Lekin, qaratgich kelishigi affiksining kirib borishi aytarli natija bermayotir.

Chunki adabiy tilga asos bo'lgan shahar shevalari vakillari talaffuzida –ning mavjud emas. Qishloq shevalarida nafaqat adabiy tilga, balki madaniy markaz hisoblangan shahar tiliga ergashish tendensiyasi uchraydi va bu tendensiya hamma vaqt saqlanadi. Masalan, Qarshi shahri atrofidagi ham y-lovchi, ham j-lovchi shevalarda Qarshi shahar shevasi ta'sirida o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi o'rnida jo'nalish kelishigi qo'shimchasi –ga (saharga ko'rdim kabi) tarqalganligi qayd qilinadi.

Yoki Toshkent shevasi ta'sirida Farg'ona vodiysidan va boshqa joylardan ko'chib kelgan yangiyo'lliklar tilida ham –vat, -vuz hodisalarining irradiatsiyasi mavjud.

Til hodisalarini yoki dialektal hodisalarni tadqiq qilishda, ko'pincha, yondosh tillar va ularning shevalari materiallari bilan chog'ishtiramiz. Bu, albatta to'g'ri. Chunki qo'shni tillar va shevalardagi lingvistik hodisalar bir-biriga doimo o'tib turadi. O'tish hodisasi taraqqiyotning keyingi davri va masofaning yaqinligi bilan xarakterlanadi¹⁷.

Ammo til va dialektlar taraqqiyotining qadimiy davri uchun xarakterli bo'lgan ayrim hodisalarni izohlashda yondosh tillar va shevalardan hamma vaqt ham material topilavermaydi. Masalan, Namangan gruppasi shevalari uchun xarakterli bo'lgan r undoshining o'zidan keyin kelgan hamma til oldi undoshlariga (tussun<tursun, ottoq<o'rtoq kabi) singib ketishi Farg'ona vodiysidagi boshqa shevalarda uchramaydi. Ammo aynan shu hodisaning o'zi O'zbekistonning janub qismida joylashgan Qashqadaryo oblastidagi shahar tip

¹⁷ Shermatov A. Lingvistik geografiya nima? - Toshkent: Fan, 1981.13-b

shevalarida mavjud. Bu **Dialektologiya**. Dialektologiya (grekcha *dialektos* – dialektlarini, ya'ni mahalliy sheva va lahjalarni o'rganadi. O'zbek dialektologiyasi fani O'zbekiston territoriyasidagi va qardosh respublikalardagi (Qozoqiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston) o'zbek tilining turli dialekt, lahja va shevalarni tekshiradi.

Ob'ektni o'rganish jihatidan dialektologiya ikki turga bo'linadi:

1. Tasviriy dialektologiya yoki dialektografiya
2. Tarixiy dialektologiya

Tasviriy dialektologiya yoki dialektografiya mahalliy lahja va shevalarga xos fonetik va leksik – grammatik xususiyatlariniqayd qilish bilan chegaralanadi. Tarixiy dialektologiya esa, tilning dialektal xususiyatlari bilan birga, shu xususiyatlarning kelib chiqishi, rivojlanishi, turli davralarda o'zgarishi, qardosh tillar bilan munosabati va shu shevaning tashkil topishida boshqa tillarning ishtirokini aniqlash kabilarni ham o'rganadi, lahja va shevalarni lingvo – geografik usullar bilan o'rganish ham birinchi navbatda tarixiy maqsadlarni ko'zda tutadi.

Adstrat– lotincha “ad” – birga, yonida va “strata” qatlam ma'nolaridagi so'zlardan olingan bo'lib, turli xalqlarning uzoq muddatli lingvistik aloqalari tufayli bir tilning ikkinchisiga ta'siri.

Analitik karta – bu kartada shartli belgilar sistemasiga, simvollarga suyaniladi va bir-biridan farqlanadigan belgilarning kelib chiqishi taxmin qilinadi.

Areallar dinamikasi – ma'lum hududdagi tarixiy-lingvistik qatlamlarning xronologiyasi, taraqqiyot bosqichlari.

Areal kartalar – maxsus dastur-so'roqlik asosida tayyorlangan, ma'lum til yoki shevalarga xos xarakterli xususiyatlarning tarqalish chegarasini aks ettiruvchi karta.

Areal-tipologik metod – areallar tiplari, turlari bo'yicha alohida regionlarga bo'lib tekshirish.

Areal atlaslar – areal kartalarning albom shaklidagi sistemali to‘plami – areal (yoki dialektologik) atlas deyiladi. Areal atlas asosida qilingan xulosalar undagi alohida kartalarning darajasidan va ularning o‘zaro uzviy bog‘lanishidan kelib chiqadi.

Areal lingvistik (umumareal) tamoyil – lingvistik kartalarni tuzish tamoyili bo‘lib, dialektologik tamoyildan farqli ravishda tilning barcha sarhlarini qamrab oladi.

Areal lingvistik karta – lingvogeografik tadqiqot usulining asosiy nuqtasidir. Lingvistik kartalar 2xil metodga asoslanib tuziladi:

1. Lingvistik strukturani tadqiq qilish metodi.
2. Til landshaftini o‘rganish metodi.

Bilingvizm– ikki tillilik ma’nosini anglatadi. Lotincha “bi” – ikki va “lingua” – til so‘zlaridan olingan. Areal lingvistikada ikki til izoglossalarining baravar uchrashi.

Boshlang‘ich karta – tablitsa materiallari joylashtirilgan tayanch karta.

Dastur-so‘roqlik – muayyan arealdagi til tarixi, dialektlar tarixi va shu til va shevalar egasi bo‘lgan xalq tarixiga aloqador lingvistik materiallarni to‘plash tuziladigan savollarning dasturlashtirilgan to‘plami.

Dialekt – o‘zbek tilshunosligida “sheva” atamasiga mos keladi, “dialekt” xalqaro atama bo‘lib, lotincha “dialektos” so‘zidan olingan “mahalliy til” degan ma’noni bildiradi.

Diglossiya – lotincha “di” – ikki va “glossa” – til so‘zlaridan olingan. Bir tilning ikki yoki undan ortiq ko‘rinishlari. Biror hududdagi ikki tilga oid izoglossalarning baravar qo‘llanishini ham diglossiya atamasi ifodalaydi. Bu o‘rinda “bilingvizm”ning bir shakli.

Diaxron tavsiflash – tillarni yoki dialektlarning lingvistik xususiyatlarini tarixiy nuqtayi nazardan tavsiflash.

Dialektologik tamoyil – lingvistik kartakarni tuzish tamoyili (prinsipi) bo‘lib, areal lingvistik tamoyildan farqli ravishda faqat dialektlarni o‘rganishni qamrab oladi.

Diftong– ushbu termin lotincha “di” – ikki karra, “phtongos” – ovoz, tovush so‘zlaridan hosil bo‘lgan. Ikki tovushan tarkib topgan unlining bir bo‘g‘inda kelishi. Shunga ko‘ra bir tovushga yaxlitlanuvchi unli diftonglar, asosan, a/o; u/o; i/e unllarining yaxlitlanishida ko‘rinadi.

Dialektal bo‘linish – muayyan hududning dialektlari (shevalari) xususiyatlariga ko‘ra bo‘linishi.

Etimologik ekskurs – lingvistik hodisalarning paydo bo‘lishi, kelib chiqishi yuzasidan tekshirish.

Ekstensional takson– rang-barang lingvistik hodisalarning muayyan areal tizimda mavjudligi. Masalan, o‘zbek tili massivni ekstensional takson sifatida quyidagi belgilar xarakterlaydi: massivning rang-barangligi; massivning areal tartiblanishi; massivning murakkabligi; massivning butunligi; massivning lingvoareal jarayonlarning zamon sathida tartiblanishi.

Fetish– areal lingvistikada so‘zsiz tan olinadigan eng dastlabki lisoniy hodisalar tushuniladi. Masalan, ma‘lum arealda mavjud eng dastlabki izoglossalar. Lingvistik aksioma.

Fonetik izoglossa – turli sheva va lahjalar uchun umumiylik kasb etuvchi tovushlar (fonemalar)ning qo‘llanish areallari nazarda tutiladi. Masalan, “j” lashish hodisasi faqat qipchoq lahjalaridagina mavjud bo‘lmasdan, qarluq lahjasining ham muayyan hududlarida, xususan, Qashqadaryo, Surxondaryo lingvistik areallarida ham kuzatiladi. Mazkur hodisani (ya‘ni “j” lashishni) o‘sha areallarning izofonemasi yoki fonetik izoglossasi deb hisoblash mumkin.

Fonetik tamoyil – fonetik tamoyil areal lingvistikada dialektal leksemalarning tovush tizimiga asosan yozilish tamoyili. (Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidagi mahalla va qishloqlarida yashovchi o‘zbeklarning nutqiga xos bo‘lgan ijtimoiy leksemalarning ba‘zilarida tojik tilining ta‘siri natijasida fonetik farqlar seziladi. Masalan, “*cholop-chalop, qatlama-qalama, yostiqa-astiq*” kabi dialektizmlaradabiy tildagi “a” tovushi “o” tovushlar bilan farqlanadi)

Fonematik tamoyil – faqat fonemalarnigina hisobga olishga asoslangan

tamoyil.

Grafik tamoyil – areal lingvistikada izoglossaning qaysi xalq tili va grafikasidan olingan bo'lsa, o'sha grafik shaklni saqlab qolish tamoyili.

Grammatik shakllar – areal lingvistikada morfologik izoglossalarni anglatadi. Masalan, dialektal affikslarning turli variantlari.

Izomorfema– izomorfemalar sifatida areal lingvistikada, asosan, dialektal leksemalar tarkibida mavjud bo'lgan morfemalarning (affiks morfemalarning), shuningdek, turli so'z turkumlariga oid xususiyatlarning tarqalish areallaridagi umumiyliklar va tillarda o'xshash holatda tarqalish areali tushuniladi.

Izofona – turli sheva va lahjalar uchun umumiylik kasb etuvchi tovushlar (fonemalar)ning qo'llanish areallari nazarda tutiladi. Masalan, “j” lashish hodisasi faqat qipchoq lahjaridagina mavjud bo'lmasdan, qarluq lahjasining ham muayyan hududlarida, xususan, Qashqadaryo, Surxondaryo lingvistik areallarida ham kuzatiladi.

Innovatsiya markazi – u yoki bu til, yoki sheva hodisaning markazi. Masalan: “-din” affiksining asl markazi uyg'ur tili tarqalgan territoriya bo'lib, u o'sha innovatsiya markazidan o'zbek shevalariga tarqalgandir. Yoki “-ning” qo'shimchasining innovatsiya markazi qipchoq tip shevalarga o'tib bormoqda.

Izofonema – turli sheva va lahjalar uchun umumiylik kasb etuvchi tovushlar (fonemalar)ning qo'llanish areallari nazarda tutiladi. Masalan, “j” lashish hodisasi faqat qipchoq lahjaridagina mavjud bo'lmasdan, qarluq lahjasining ham muayyan hududlarida, xususan Qashqadaryo, Surxondaryo lingvistik areallarida ham kuzatiladi. Mazkur hodisani (ya'ni “j” lashishni) o'sha areallarining *izofonemasi* yoki *fonetik izoglossasi* deb hisoblash mumkin.

Izoleksema – atama turli dialektlarda bir-biriga yaqin shakllarga ega bo'lgan leksik birliklarning tarqalish areallini anglatadi. Mahalliy dialektal xususiyatlar: arxaizmlar, neologizmlar, dialektizmlar, turli tillarga oid elementlar va boshqa qismlarni o'z ichiga oladi.

Intensional takson – ma'nosi nutq jarayonida yuzaga chiqadigan izoglossalarning muayyan arealda tarqalishi.

Informant – ma'lumot beruvchi. Dialektologik ma'lumot kimdan olingan bo'lsa o'sha manbani tushunish lozim.

Ikki tilli shevalar – o'zbek va tojik tilli, o'zbek va turkman tilli, o'zbek va qozoq tilli shevalar ikki tilli shevalar hisoblanadi.

Ilyustrativ xarakter – to'plangan materiallar kartalar (atlaslar) shaklida ko'rgazmalilik kasb etishi.

J-lovchi shevalar – O'zbek tilining qipchoq dialekt zonasi juda katta arealga ega bo'lib, j-lovchi o'zbek urug'- qabilalar guruhidan tashkil topgan. Hozirgi o'zbek tilidagi *yur*, *yig'moq*, *yemoq* kabi shakllar j-lovchi shevalarda *jur*, *jiymoq*, *jemoq* tarzida qo'llaniladi. J-lovchi shevalar qorluq zonasining Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatida ham kuzatiladi.

Jonli dialektlar – hozirgi kunda muayyan arealda qo'llanilayotgan shevalar jonli dialektlar deb yuritiladi. Ma'lum sabablarga ko'ra qo'llanilmay qolgan dialektlar esa "o'lik shevalar"dir.

Kartografik metod – tillar va shevalarni areal kartalar orqali o'rganish.

Kartalashtirish – to'plangan lingvistik materiallarni areal kartalarga joylashtirish.

Korrespondent – areal lingvistikada muayyan territoriyaga chiqib, o'sha yerli aholining tilida uchraydigan areal lingvistik (dialektologik) materiallarni (faktlarni) yozib oluvchi.

Lingvogeografik metod – lingvistik hodisalarni geografik joylashishiga ko'ra tekshirish metodi.

Lingvistik yoki dialektologik orol – muayyan til yoki sheva vakillarining boshqa til yoki shevalarda gaplashuvchilar hududlari orasida o'ralib qolishi. Agar qaysidir dialekt faqat o'ziga mansub chegaralardan chiqolmay qolsa, bunday til landshaftini lingvistik yoki dialektologik orol deb hisoblash mumkin bo'ladi. Bunday "til orollari" paydo bo'lishiga xalqlarning "buyuk ko'chish"lari, siyosiy-ijtimoiy kelishmovchiliklar, urushlar kabi hodisalar sabab bo'ladi.

Makro va mikro atlas – muayyan lingvistik hodisaning tarqalish areali aks etadigan areal lingvistik atlas turlari. Kichik arealga (masalan, biror shevaga) taalluqli bo'lsa mikroatlas, katta arealga (masalan, biror lahjaga) taalluqli bo'lsa makroatlas hisoblanadi.

Massiv – areal lingvistikada ma'lum bir lingvistik hodisalarni o'zida saqlab kelayotgan region nazarda tutiladi.

Metokartografik metod – kartalar tuzish teoriyasi bilan shug'ullanadigan soha metokartografiya deyiladi. Areal lingvistikada metokartografik metod bilan areal kartalarni tuzish tamoyil (prinsip)larine shakllantirishda foydalaniladigan metod.

Milliy atlas – karta hajmdagi lingvistik hodisalarni o'zida aks ettirgan atlas. Areal lingvistikada makroatlasga to'g'ri keladi.

Milliy lahjalar – ma'lum millatga mansub milliy til tarkibida mavjud lahjalarni anglatadi. O'zbek milliy tilida uchta lahja mavjud: qarluq, qipchoq va o'g'uz. O'zbek tili uchun ana shu uchta lahja – milliy lahjalar hisoblanadi.

Sintetik karta – lingvistik xususiyatlarning umumiylikiga ko'ra tuziladigan karta. Bunda mavjud siyosiy-ijtimoiy hududlar hisobga olinmaydi.

Struktur-areal – areal lingvistikada muayyan hududning dialektal-lingvistik xususiyatlarini tarkibiy jihatdan o'rganishni nazarda tutuvchi metod.

Taksonomiya – areal lingvistikada hududiy til faktorlarining ierarxik tartiblanishini anglatadi. O'rganish metodi sifatida Blum taksonomiyasi tipiga mos keladi.

Tayanch dialekt – o'zining lingvistik xususiyatlari bilan adabiy til normalariga yaqin dialekt tushuniladi. Jumladan, qarluq lahjalariga xos dialektlarni o'zbek adabiy tili uchun tayanch dialekt sifatida qarash mumkin. Areal lingvistikada muayyan arealdagi shevalar uchun asosiy o'rinni agallagan dialektni ham shu areal uchun tayanch dialekt deb hisoblash mumkin.

Ta'sir zonalari – biror til yoki dialektning boshqasiga ta'sir qiluvchi zonalari. Bunday areallarda ikki tillilik, ikki xil shevaning aralashishi, chatishuvi kabi lingvistik hodisalar ro'y beradi.

Transkripsiya – lahja va shevalarda uchraydigan nutq tovushlarining ko‘rinishlarini yozuvda ifodalash uchun qo‘llaniladigan ma’lim belgilar sistemasi.

Yig‘ma karta – bu kartada bir tipli yoki chig‘ishtiriladigan hodisalar yig‘ilgan bo‘ladi. Mazmuni va material joylashtirish prinsipi jihatidan kartalar tayanch karta, ish bajarishi jihatidan sintetik, analitik yoki tematik bo‘lishi mumkin.

2.2-§. Lingvistik xaritalar va ularning turlari

Biror til yoki dialektlarga xos xarakterli lingvistik xususiyatlarning tarqalish chegarasini aks ettirgan albom yoki kitob shaklida nashr qilingan kartalar yig‘indisi dialektologik atlas sanaladi. Dialektologik atlaslar biror xalq tili va xalq tarixini, unung millat bo‘lib shakllanishini o‘rganishda alohida ahamiyatga ega bo‘ladi.

Xaritalar bir necha xil ko‘rinishda bo‘lishi mumkin¹⁸. Masalan, harakatdagi hodisalarni ifodalovchi xaritalar. Bunda harakatdagi hodisalar alohida tasvirlash usuli sifatida xaritada ko‘rsatiladi. Masalan, tojik tilining kengayib borish harakati, singormanizmning yo‘qolib borish tezligi. Harakatdagi belgilar joylashish xarakteri bo‘yicha turlicha bo‘lishi mumkin: nuqtali, chiziqli, maydonli, yoyilgan, uzluksiz. Xaritani maqsadiga va xaritaga olinayotgan hodisaning xususiyatiga mos holda harakatdagi belgilar yordamida harakatlanayotgan hodisaning yo‘lini, harakat usulini, yo‘nalishini va ko‘chib yurush tezligini, sifatini, quvvatini ko‘rsatishi mumkin. Grafik vositalar sifatida sterelkalardan, shuningdek har xil rangdagi, sur‘atdagi va kenglikdagi chiziqlardan foydalaniladi.

Xaritada biror hodisani taqsimlanishini ma’lum hududiy bo‘linish birligi ichida joylashtiriladigan va hodisani har xil hududiy birlik chegarasida jamlangan (yakuniy, umumiy) qiymatini (miqdorini) ayrim paytda asa tarkibini yoki dinamikasini ifodalaydigan diagrammalar yordamida tasvirlash usuliga

¹⁸ K.A.Salixev. Kartografiya. - M.: Vishaya shkola, 1982. B-45.

Kartodiagrammalarni ko'rgazmali taqqoslash uchun, masalan hodisalarning tarqalish darajasini ko'rsatishda foydalaniladi. Kartografiyada chiziqli diagrammalar-ustunchalar, tasmachalar va shu kabi vositalardan foydalanish qulay.

Xaritalarda kamdan-kam hollarda bir xil usul ishlatiladi. Ikkita yoki uchta va undan ko'p usullarni birgalikda qo'shib ishlatish, muayyan xaritaning maqsadiga, mazmuniga, foydalanish usuliga va boshqa sabablarga bog'liq bo'ladi.

Dialektologik atlaslarning dastlabki namunalari XIX asrning XX asrning boshlarida yaratilgan. Yevropada tuzilgan eng muhim dialektologik arlaslar quyidagilar: Venker Vredelarning "Nemis tili atlas" (1876-1926-yillar mobaynida yaratilgan); Marburgdagi nemis dialektologiyasi markaziy instituti nashr etgan "Nemis leksikologik atlas"; Qiperon va Edmonning 12 jildli "Fransuz tili atlas" (1902-1912-yillar mobaynida yaratilgan); Yaberg va Yudning 8 jildli "Italyan-Shveytsar atlas" (1928-1940-yillar mobaynida yaratilgan). Moskvada tuzilgan "Moskva shahridagi markaziy oblastlar rus xalq shevalari atlas" (1957-yili nashr etilgan); "Shimoliy-g'arbiy oblastlar rus xalq shevalari atlas" (nashrga tayyorlangan) va respublikalarda nashr etilgan "Ukrayin tili xalq shevalari atlas", "Belarus tili xalq shevalari atlas" va boshqalar¹⁹.

O'zbek tilshunosligining hali yosh sohalaridan biri o'zbek dialektologiyasi o'zining boshlangich etapi- dialektografiya bosqichini o'tab, endi u to'plangan boy material-baza asosida hozirgi zamon dialektologiyasining nazariy masalalarini ishlash, shu bilan birga lingvistik geografiya masalalari bilan shug'ullanish bosqichiga o'tdi.

O'zbekistonda dialektologik ishlar uch yo'nalish bo'yicha ilmiy ish olib bormoqda. Bular: o'rganilmagan o'zbek shevalarini monografik tadqiq qilish, o'zbek shevalari lug'atini tuzish va o'zbek tili dialektal atlasini yaratishdir.

¹⁹Murodova N. O'zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal tadqiqi - T., Fan. 2007. 60-b

kartasi”ni tuzib chiqdi. Bu tadqiqot 167 karta bilan o‘z yakunini topdi.

Keyingi yillarda Orol bo‘yi o‘zbek shevalari, janubiy va shimoliy Tojikistonda yashovchi o‘zbek shevalari, janubiy Qozog‘istondagi O‘zbek shevalarining lingvistik kartasi ustida qizg‘in ish olib borildi.

O‘zbek tili dialektologik atlasini tuzish o‘zbek adabiy tili imlo va talaffuz nomlarini fonetik tuzilishi sistemasi, grammatik qurilishi leksik tarkibini normallashtirishda aniqliklar kiritish uchun; o‘zbek shevalarining mavjud tasniflarini to‘ldirish, mukammallashtirish; adabiy til va tayanch shahar shevalarining kundalik ta’siri natijasida adabiy tilning o‘zbek shevalararo normallasha borishini tezlashtiradi.

O‘zbek dialektologlari o‘z milliy tillari atlasini yaratish bilan bir qatorda, qardosh dialektologlar bilan birga “Turkiy tillar atlasini”ni ham tuzishni maqsad qilganlar. Bunday atlasni tuzish akademik V.M.Jirmunskiy tashabbusi bilan boshlangan edi.

Uning so‘roqlari va programmasi 1960-70-yillarda bir necha bor muhokama qilinib, tasdiqlandi.

Har 3-4 yilda turkiy tillar arlasini yaratish bo‘yicha Xalqaro miqiyosida konferensiyalar, yig‘inlar o‘tkazilib turilgan.

Umumturkiy lingvistik atlasning yaratilishi, turkiy xalqlar tili haqidagi yangi ma’lumotlar beradi, qardosh tillarning taraqqiyoti fikrimizni kengaytiradi, unga ilmiy nuqtayi nazardan aniqliklar kiritadi.

Ozarbayjon Fanlar akademiyasining akademigi prof. M.Sh.Shiraleyev ozarbayjon tili sharqiy sheva va dialektlar gruppasining dialektologik atlasini, G.Barakina qirg‘iz shevalarining atlasini, X.Doniyorov, R.Qo‘ng‘urovlar Samarqand viloyati shevalarining lingvistik atlasini tuzishga kirishganlar.

O‘zbek xalq shevalari atlasini hozirgi zamon o‘zbek tili shevalarining rang-barang xususiyatlarini kartalarda ifodalaydi. Lingvistik kartalarda ko‘rsatilgan dialektal xususiyatlar va ularning tarqalishi, tilshunoslarga ayrim til hodisalarining tarixiy taraqqiyoti va o‘zbek milliy tilining kelib chiqishi kabi masalalarni yanada chuqurroq o‘rganish imkonini beradi. Shuningdek, atlas

materiallari tarixchilar, etnograflar uchun ham foydalidir.

O'zbek tili dialektologik atlasida quyidagi vazifa-maqсадlarni ko'zda tutadi:

1. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili ma'lum shevalarga tayanadi. U o'zining imlo va talaffuz normalarini, shuningdek, fonetik sistemasi, grammatik tuzilishi, leksik sostavini normalashtirishda, asosan, Toshkent-Farg'ona til shevalariga asoslansa ham, ayrim hollarda bu shevalar materiallari adabiy til normalariga mos kelmaydi. Dialektologik atlasning obyektiv natijalari (xulosalari) bu masalaga to'liq aniqlik kiritadi. Haqiqatan ham, shevalarga xos dialektal xususiyatlarning butun o'zbek tili hududida tarqalishi va uning chegaralarini faqat dialektologik atlas zaminadagina muvaffaqiyatli hal qilish mumkin.

2. Dialektologik atlas materiallari o'zbek shevalarining mavjud tasniflarini to'ldirish, mukammallashtirishga, ularga aniqlik kiritishga yordam beradi. Shuningdek, o'zbek shevalarining paydo bo'lishida qatnashgan turkiy va turkiy bo'lmagan etnik gruppalarning o'zaro aloqalari natijasida ro'y bergan juda murakkab etnolingvistik taraqqiyot protsesini ham belgilab beradi.

3. Adabiy til va shahar tayanch shevalarining kundalik ta'siri o'zbek xalq shevalarida til faktlarining aralashuvi va tekislasha borish jarayonini tezlashtirdi. Chunki o'zbek xalqining ekonomikasi va madaniyati mislsiz darajada yuksalishi bilan o'zbek adabiy tilining qo'llanish doirasi kengaydi. Adabiy tilning barcha o'zbek shevalararo normalasha borishi sata-swkin dialektal nutqni qisib, og'zaki-so'zlashuv nutq doirasiga ham kirib bordi. O'tmishda genetik jihatdan turlicha bo'lgan o'zbek xalq shevalarining birlashishi uchun xalqning ekonomik va madaniy qoloqligi to'sqinlik qilar edi. Xonliklar va ularning hududiy chegaralanganligi shevalararo farqlarning keskin saqlanib qolishiga sabab bo'ldi. Aayrim til faktlarining qisman aralashuvi va ular orasidagi o'zaro farqning tekislasha borishi butun o'zbek tili tarqalgan hududda bo'lmay balki bir-biriga yaqin, qo'shni shevalarning o'zaro munosabati natijasidagina sodir bo'lgan edi. Hozir dialektal xususiyatlarning yo'qolib borish jarayoni faqat yondosh shevalarning o'zaro munosabati natijasidagina emas, balki maktab, vaqtli matbuot, radio va boshqalar orqali adabiy tilning kundalik

va atroflicha ta'siri orqasida ham ro'y bermoqda.

Ma'lumki, o'zbek tili turkiy tillar orasida turli xil sheva va dialektlarga boyligi jihatidan alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun bu tilni areal jihatdan o'rganish va uning atlasini tuzish ishini biroz og'irlashtiradi.

Hozirgi paytda Xorazm shevalari kartasini (pof.F.A.Abdullayev), Buxoro gruppasi shevalari kartasini (prof. M.Mirzayev), Namangan gruppasi shevalari kartasini (A.Aliyev), Qashqadaryo gruppasi shevalari kartasini (A.Shermatov) tuzish ishlari boshlab qo'yilgan.

Maxsus dastur-so'roqlik asosida tayyorlangan, ma'lum til yoki shevalarga xos xarakterli xususiyatlarning tarqalish chegarasini aks ettiruvchi areal kartalarning albom shaklidagi sistemali to'plami-areal (yoki dialektologik) atlas deyiladi.

Areal yoki dialektologik atlas-piktografik yoki umumlashtiruvchi xarakterdagi kartalarni chig'ishtirish sistemasi bo'lib, uning yig'indisi tilning territoriyaga tarqalish modelini yoki uning biror bo'lagini shakllantiradi.

Areal atlas asosida qilingan xulosalar undagi alohida kartalarning darajasidan va ularning o'zaro uzviy bog'lanishidan kelib chiqadi.

Areal lingvistik atlaslar, asosan, 2-xil bo'ladi:

1. Regional atlas.
2. Zonal atlas.

Regional atlasning vazifasi-u yoki bu regiondagi shevalar strukturasi eskiz-sxemasini aniqlash va detallashtirishdan iborat. Sobiq ittifoq davrida tuzilgan Moldaviya areal atlaslari-region atlas sanaladi.

Roman-german tillari lingvogeografiyasida *milliy atlas*, *regional atlas*, *makro va mikro atlas* terminlari ham qo'llaniladi. O'zbekiston hududini o'z ichiga olgan o'zbek shevalari atlaslari tuzilsa, u *regional atlas* bo'ladi.

Yirik zonadagi bir xil xususiyatni o'zida to'la aks ettirgan atlas-zonal atlas hisoblanadi. Masalan, Rumin tilining areal atlaslari bolqon-roman massivining umum-zonal atlasidir. O'rta Osiyo zonasi territoriyasidagi o'zbek shevalari materiallarini to'la qamrab olgan o'zbek tili atlaslari yaratilsa, u *zonal atlas*

hisoblanadi.

Til materiali tadqiqotida kartalashritish metodini qo'llash, dastlab, XIX asrga to'g'ri keladi. 1821-yilda K.de.Monbre tomonidan tuzilgan fransuz shevalari chegaralarini belgilovchi karta Fransiya qirollik jamiyatiga taqdim qilinadi. 1823-yilda d.Monye o'zining areal lingvistik karta tuzish g'oyasini oldinga suradi. So'ngra Venker va Vredening nemis tili atlasini (1876-1926 yillar), Marburgdagi nemis dialektologiyasi Markaziy instituti nashr etgan "Nemis leksikologik atlasini", J.Jilyeron va E.Edmonning 12 jildli "Fransuz tili atlasini" (1903-1912 yillar), K.Yaberg va Y.Yudning 8 jildli Italyan-shveysar atlasini (1928-1940 yillar) o'sha davrda maydonga kelgan.

Rossiyada til hodisalarini geografik jihatdan o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmida (I.I.Sreznevskiy, keyinroq esa A.I.Sobolevskiylar tomonidan) boshlangan edi.

Rus tilining areal lingvistikasi ustida 1903-yildan boshlab A.A.Shaxmatov tashabbusi bilan tuzilgan Moskva dialektologik Komissiyasi rejali ish olib bora boshlaydi. Bu komissiya 1915-yili "Rus tili Yevropa qismi dialektologik kartalaridan tajriba" (Rus dialektologiyasidan ocherklar, ilovasi bilan) degan karta nashr ettiradi. Bu kartada hozirgi Sharqiy slavyan (rus, ukrain, belorus) tillari va bu tillarning har qaysisining lahjalarga va sheva guruhlariga bo'linishi ko'rsatib berilgan. Bunday kartalarning yaratilishi rus areal lingvistikasi fani uchun muhim davrni boshlab berdi.

Moskva dialektologik Komissiyasi rus tilining areal lingvistik atlasini tuzish uchun tayyorgarlik ishlarini boshlab yuboradi. 1935-yilda B.A.Larin, F.P.Filin boshchiligida "Rus tili atlasini" tuzishga kirishiladi va 1944-yilda R.I.Avanesov, B.A.Larin boshchiligida rus tili areal lingvistik atlasini yaratish ustida harakatlar boshlanadi. Chunonchi, 1951-yilda "Moskva sharqidagi Markaziy hududlar rus xalqi shevalari atlasini", 1952-yilda "Shimoliy-g'arbiy hududlar rus xalq shevalari atlasini" tuzib chiqildi. Bularning har qaysisi o'z hajmi bilan chet el katta milliy atlaslariga tengdir hamda rus tili, rus xalqi tarixi va rus millatining shakllanishini o'rganish ushuncha qimmatli material beradi.

Areal lingvistik o'rganish orqali tillar va shevalarning istalgan aspektini: fonetika, (fonologiya), morfologiya, sintaksis, leksika, stilistika kabi aspektlarini tavsif etish mumkin. Lekin atlaslar tilning barcha hodisalarini o'zida aks ettira olmaydi. Bu hol atlasning turi va hajmi bilan bog'liq. Areal lingvistik atlaslar yangi hodisalarni ham, tilda yo'qolib boradigan hodisalarni ham o'zida borabar aks ettirishi lozim. Eski atlaslardan farqli ravishda hozirgi atlaslar til hodisalarini har taraflama o'rganishga bag'ishlangan bo'ladi.

2.3-§. Lingvistik xaritalar tuzishning tamoyillari

Areal atlas o'zida ma'lum tilning hamma aspekti bo'yicha material mavjud bo'lishi bilan shu tilning nazariy va amaliy fonetikasi, grammatikasi va leksikologiyasi taraqqiyotini chuqur o'rganish uchun imkoniyat yaratadi. Areal atlas kartalari 2 xil tamoyilga asoslanib tuzilishi mumkin.

1. Dialektologik tamoyil
2. Areal lingvistik (umumareal) tamoyil

Karta tuzishdagi umumareal va dialektologik tamoyil hamma atlaslarda barobar saqlanadi, ularning o'zaro munosabati dastlab material tanlashda ham, kartalashtirishni ham amalga oshirishda ham asosiy o'rin tutadi. Shunga qaramay, areal va dialektologik atlaslar o'zining ko'pchilik belgilari bilan birbiridan farqlanadi. Farqlar dastlab anketalashtirish darajasidan boshlanadi.

Areal atlas uchun material keng ko'lamdagi savollar majmuasi asosida to'plansa, dialektologik atlas materiali uchun ma'lum dialektal xususiyatlarni modellashtiruvchi dastur asos bo'ladi. Bunday dasturning har bir punkti alohida mavzu uchun mustaqil so'roqlikni tashkil etadi. Masalan: Areal kartaning har bir so'z uchun savolga javob tariqasida tuzilishi uning dialektal ayirmaliklar tarqalishini aniqlaydigan dialektologik kartadan farqini ko'rsatadi²¹.

Anketalashtirish bevosita va bilvosita (korrespondent orqali) amalga oshirilishi mumkin. Anketalashtirish metodikasining bevosita hamda bilvositaligi, so'roqqa javob olish formasi orqali amalga oshirilishi, illustratsiya

²¹Olloyorov Q. Areal lingvistika fanini o'qitish asoslari. –Toshkent: 2020. 19-b.

qo'llashi, informator tilidan anketashtirish, yoki adabiy tildan tarjima qilish kabilar areal lingvistik kartani baholashda hisobga olinadi.

Kartalashtirish usuli

Areal lingvistikaning asosiy vazifasi-til hodisalarining ma'lum bir hududga tarqalishini kartalashtirish va tadqiq qilish hamda shundan kelib chiqadigan muammolarni hal qilishdan iborat. Ma'lumki, jonli tildagi har bir lingvistik hodisa o'zining tarqalish chegarasiga, o'z territoriyasida ega. Masalan, dialektal so'zlar chegarasi ma'lum hudud bilan belgilanadi.

Tovush o'zgarishi bir sheva yoki dialektga xos bo'lsa ham yoki bir necha sheva dialektlarga tarqalgan bo'lsa ham, baribir, hudud jihatidan chegaralangandir. Shu bilan birga, tildagi ba'zi hodisalarning tarqalish chegarasi keng masshtabga ega bo'lishi ham mumkin. Lekin har bir dialekt biron aniq chegara bilan bir-biridan ajratilmaydi. Bir dialektlarga xos xususiyat boshqa bir dialektda ham uchrashi mumkin. Masalan, qishloq tip shevalarida mavjud bo'lgan ba'zi xususiyatlarni shahar tip shevalarida ham ko'ramiz, yoki j-lovchi shevalarga xos ba'zi xususiyat y-lovchi shevalarda mavjud bo'ladi.

O'zbek shevalari leksikasi o'zbek dialektal tilining leksik sistemasini tashkil etadi. Shevalardagi kartalashtirilishi lozim bo'lgan har bir leksik birlik o'ziga xos xususiyatga ega.

Shuning uchun kartalashtirilishi lozim bo'lgan dialektal hodisalarni tanlashda shu territoriyada joylashgan sheva va dialektlar orasidagi eng muhim, farqli til hodisalari hisobga olinib, har bir sheva o'z dialekti yig'indisida, shu dialekt sistemasida o'rganib chiqiladi. Chunki atlasga material yig'ish uchun mo'ljallab tuzilgan anketadagi savollar izoglossalar hosil qiluvchi til hodisalariga bag'ishlangan bo'lishi kerak.

Har bir kartani tuzishda dastlab kartalashtirilgan til hodisasining tarqalish chegarasi – izoliniyasi aniqlanilib chiqilishi kerak. So'ngra, har xil sheva va dialektlarda mavjud bo'lgan bir xil til hodisalari izoglossa sifatida kartalashtiriladi. Ba'zi territoriyalarda izoglossalarning tarqoq holda uchrashi qachonlardir aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chishining natijasi

ekanligidan dalolat beradi. Ayrim dialektlarda leksik izoglossalar yig'indisida noaniqlik uchrasa, ba'zi dialektlarda esa, fonetik izoglossalar ayniqsa, zich joylashgan bo'ladi. Morfologik izoglossalar zichligi leksik va fonetik izoglossalar zichligi orasida bo'lib, keyingisiga yaqinroq turadi.

Areal lingvistik karta – lingvogeografik taqdimot usulining asosiy nuqtasidir. Sinxronik tadqiqot natijasi hisoblangan lingvistik kartada til tarixining hamma davri o'z aksini topishi mumkin.

Lingvistik kartalar 2 xil metodga asoslanib tuziladi:

1. Lingvistik strukturani tadqiq qilish metodi.
2. Til landshaftini o'rganish metodi.

Bu hol kartalashtirish metodi bo'yicha va kartalashtirishning asosiy xarakterini hamda lingvistik yuklama bilan farqlanadigan kartalarning ikki xil asosiy tiplari tuzilishiga sabab bo'ladi. Ular quyidagilar:

1. Sintetik karta. Bu karta roman lingvogeografiyasida keng tarqalgan bo'lib, unda har bir punktdagi formalar kartaga bevosita yoziladi.

2. Analitik karta. Bu kartada shartli belgilar sistemasiga, simvollarga suyaniladi va bir-biridan farqlanadigan belgilarning kelib chiqishi taxmin qilinadi. Bu tip karta nemis shevashunosligi maktabiga xosdir.

Agar sintetik karta fonetik transkripsiya yoki traditsion orfografiyada suyanib, faqat yozuv xarakteri bilan farqlansa, analitik kartaning esa grafik tuzilishi har xil bo'lishi mumkin.

Yoppasiga anketalashtirishda hamda qabul qilingan shartli belgilar hajmining kichikligi bilan bunday karta asosan, rangdorlik metodi – yaqqollikni saqlagan holda muhim areallarni vao'tuvchi zonalar xarakterini aniq belgilash imkoniyatini yaratadi.

To'plangan materialning xarakteriga qarab kartalar quyidagi ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin:

1. Boshlang'ich yoki tayanch karta. Unda tablitsa materiallari ham muhim rol o'ynaydi.

2. Oraliq yoki yig'ma karta. Bu kartada bir tipli yoki chog'ishtiriladigan

hodisalar yig'ilgan bo'ladi. Mazmuni va material joylashtirish prinsipi jihatidan tayanch karta ish bajarishi jihatidan kartalar sintetik, analitik yoki tematik bo'lishi mumkin.

Kartadagi lingvistik yuklama xarakteri tilning territorial tarqalishi yoki tayanch punktlarning siqiligi bilan belgilanadi.

Tayanch tarmoq kartada kartalashtirishning sintetik yoki analitik metodlarini qo'llash mumkin bo'lsa, ochiq karta esa, faqat grafik imkoniyatlar bilan chegaralanadi va faqat analitik bo'lishi mumkin.

Oraliq karta ayrim umumlashtirishni ko'zda tutadi, bu uning grafik tuzilishida aks etadi. Izoglossalar yig'indisidan iborat bo'lgan karta faqat analitik darajada bo'lishi mumkin.

Ochiq karta (yoki yoppasiga anketalashtirishga yaqin karta) til landshaftining aniq tasvirini beradi.

Lingvistik kartalarning texnik belgilari, kartalashtirish usullari atlas tuzuvchilarning metodologik ko'rgazmalarisiz to'liq namoyon bo'lmaydi.

Bugungi kunda o'zbek tili o'zining cheksiz boyliklarga ega ekanligini namoyon etmoqda. Ma'lumki, o'zbek adabiy tili boy manba bo'lgan xalq tilidan oziqlanadi, uning imkoniyatlari bilan boyib, uning zaminida taraqqiy etib boradi. Chunki hozirgi o'zbek lahja tarixi yozma yodgorliklar tilida saqlanmagan va bizgacha etib kelmagan ko'pgina so'z hamda lug'aviy shakllarni o'zida saqlagan. Bular o'zbek tili uchun juda nodir meros bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, o'zbek xalqi ham o'z tili, urf-odati, adabiyoti, moddiy va ma'naviy boyliklariga ega bo'lgan eng qadimgi xalqlardan biridir. U o'zining ko'p asrlik tarixiy hayoti davomida o'z madaniyatini, adabiyotini va adabiy tilini yaratdi. Bizga ma'lumki, xalq tarixining tadrijiy taraqqiyoti uning tiliga ham ta'sir etadi. Ayniqsa, bu o'zgarishlar og'zaki va yozma adabiy merosda o'z aksini topadi. Og'zaki va yozma adabiy meros namunalari xalqning o'zini anglash barobarida yuzaga kelgan xulosa, bilimlari majmuini ifodalagan bebaho ma'naviy boylikdir. Xalq biror so'zni shunchaki aytmaydi. Bu so'z zamirida necha-necha avlodlarning hayotiy tajribasi mohiyati jamlanadi.

Biz xalqimizning tilini o'rganish orqali uning tarixini, madaniyatini o'rganamiz. Bu esa tilimizda mavjud bo'lgan shevalarni hududiy o'rganish bilan bog'liq masaladir. Darvoqe, xalq shevalari adabiy tilning yozma yodgorliklariga nisbatan qadimiyroq manbadir. Agar ular hozir o'rganilmas ekan, ma'lum bir davr o'tishi bilan yuqola boradi. Shuning uchun ham xalq shevalarini o'rganish, undan bahramand bo'lish buning kunning asosiy vazifalaridan biriga aylanmog'i kerak. Bunday ishlarni amalga oshirish uchun "O'zbek tili milliy qadriyatlarining atlasini" yaratishimiz lozim. Chunki, o'zbek tilshunosligida bu atlas yaratilmagan. Bunday atlas O'zbekiston hududida yaratilsa, u O'zbekistonimizning lisoniy manzarasini yorqin aks ettirish bilan birga o'zbek xalqi hayoti va turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan minglab so'zlarni adabiy tilga olib kirishga manba bo'la oladi. Shuningdek, shunday so'z va hodisalarning tarqalishini umummilliy boylik darajasida xalqqa etkazish haqida aniq ma'lumot beradi hamda ko'p tomli o'zbek tilining izohli lug'atlarini yaratish uchun boy manba bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar

O'zbek tilshunosligining hali yosh sohalaridan biri o'zbek dialektologiyasi o'zining boshlangich etapi- dialektografiya bosqichini o'tab, endi u to'plangan boy material-baza asosida hozirgi zamon dialektologiyasining nazariy masalalarini ishlash, shu bilan birga lingvistik geografiya masalalari bilan shug'ullanish bosqichiga o'tdi.

O'zbekistonda dialektologik ishlar uch yo'nalish bo'yicha ilmiy ish olib bormoqda. Bular: o'rganilmagan o'zbek shevalarini monografik tadqiq qilish, o'zbek shevalari lug'atini tuzish va o'zbek tili dialektal atlasini yaratishdir.

III BOB. O'ZBEK TILIDA IJTIMOYIY LEKSIKANI XARITALASHTIRISH TAMOYILLARI

3.1-§. Ijtimoiy leksika tasnifi

Tildagi ijtimoiy-maishiy leksika faoliyatining o'ziga xosligi asosan ob'ektiv voqelikning nominatsiya qilingan hodisalari bilan kuchli ekstralingvistik aloqalar bilan belgilanadi. Shuning uchun ham aniqlangan ijtimoiy-maishiy lug'atni tizimlashtirish va keyinchalik ifodalashning eng maqbul yo'li uni o'zaro bog'liq mavzuli guruhlar shaklida taqdim etishdir.

Lug'atdagi tizimli munosabatlar masalasi haqli ravishda zamonaviy tilshunoslikning markaziy va eng munozarali masalalaridan biri hisoblanadi. Tilning leksik darajasi eng ochiq va o'zgaruvchan. Uning dinamik tabiati, xususan, leksik birliklarning turli o'zaro ta'sirida, leksemalar turli leksik-semantik guruhlar va assotsiatsiyalar hosil qilganda namoyon bo'ladi.

Ilmiy va o'quv adabiyotlarda ijtimoiy dialektlar terminini ko'plab uchratamiz. Odatda ijtimoiy dialektlar tilning shunday bir ko'rinishiki, ular adabiy til va uning normalariga mos kelmaydi. Biroq ko'pgina manbalarda ijtimoiy dialektlarni adabiy tilning u yoki bu jihatlarini ochib beruvchi, to'ldiruvchi vositalar sifatida qarashlar ham mavjud.

Ma'lumki, ijtimoiy dialektlar umumxalq tilining ma'lum bir qatlamini tashkil etadi. Shu jihatdan ham, ijtimoiy dialektlar xususida ma'lumotlar juda ko'p uchraydi. Xususan, rus tilshunosligida V.Jirmunskiy, B.Serebrennikov va V.Avrarin kabilar fikr munosabatlar bildirishsa, o'zbek tilshunosligida bu borada S.Ibragimov, E.Begmatov, A.Sobirov, D.Abdurahmonov kabilarning ishlari diqqatga molikdir. Odatda ijtimoiy dialektlar ma'lum bir qatlamga mansub shaxslar va ularning kasb-koriga oid bo'lgan so'zlardir. Bu haqida tilshunos olimlar ko'plab fikrlar yuritishadi. Jumladan, rus tilshunosi B.Serebrennikov ularni dialektlar sifatida emas, balki ijtimoiy nutq variantlari, nutq uslublari ekanligini aytib o'tadi. Ayni paytda, bu nutq variantlarini ijtimoiy dialektlar sifatida xizmat qilishini e'tirof etar ekan, ularni fonetik sistemasini hamda Grammatik qurilishi ham qayd etib o'tadi. Demak, ijtimoiy dialektlar ijtimoiy

nutq variantlari sifatida ham nutq uslublari bo'lganda ham adabiy tildan, fonetik, leksik, grammatik jihatidan farqlanib turadi.

Shuning uchun ham bu masalada fikr yuritish qaysidar ma'noda ijtimoiy turmush tarzining u yoki bu qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Zero, bu masalalarni keng va atroflicha o'rganish tilning paydo bo'lish bosqichlaridan tortib, to hozirgi davrga qadar bo'lgan til taraqqiyotining qonuniyatlarini qamrab oladi, shunga binoan dialektik qatlamni turli davr til taraqqiyoti uchun xos ekanligini alohida qayd etish lozimdir.

Ma'lumki, o'zbek tili leksikasida ijtimoiy dialektlar turli tabaqada mansub bo'lgan shaxslar uchun xizmat qiladi. Ularning ijtimoiy kelib chiqishi, urf-odatlarini, an'analari, kasb-korlari turli xil jihatlarni ochib berishda muhim manba hisoblanadi.

Albatta, ijtimoiy dialektlar (adabiy til, hududiy dialektlar, jonli so'zlashuv tili) ma'lum bir til ko'rinishlari bilan uzviy aloqada bo'ladi. Shunga ko'ra, ijtimoiy dialektlar turli til ko'rinishlari zamirida paydo bo'ladi. Ta'kidlash joizki, ijtimoiy dialektlar ma'lum shaxs yoki guruh vakillariga xizmat qiladi, ularning ijtimoiy kasblardagi qarashlarini, hatti-harakatlarini, bekgixususiyatlarini o'rganishimiz uchun manba sifatida xizmat qiladi. Ko'rinadiki, ijtimoiy dialektlar turli tabaqada mansub bo'lgan shaxslar va ularning ijtimoiy turmushdagi o'rnini ifodalashda o'ziga xos vositalar sifatida xizmat qiladi. Tilimizda shunday chegaralangan qatlam borki, biz uni noadabiy til vositalari nomi ostida o'rganamiz.

O'zbek tilshunosligida sohalar leksikasi birmuncha o'rganilgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Bu sohada ko'pgina nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan²². O'zbek tilida sohaviy leksikaga oid so'zlar,

²²Маматов Н. Узбекская хлопководческая терминология: Автореф. дис. ... канд. Филол. Наук. – Ташкент, 1955. – 16 с; Ибрагимов С. Профессиональная лексика узбекского языка (на материалах ферганских говоров): Автореф. дис. ... д-ра филол. Наук. – Ташкент, 1961. – 163; Абдиев М. Сохавий лексиканинг систем таҳлили (Самарқанд вилояти касб-хунарлари материаллари асосида): Филол. Фанлари доктори ... дис. – Тошкент, 2004. – 262 б.

xususan, kiyim-kechak va uning qismlari nomlari maxsus tadqiq qilingan²³. Lekin o'tgan davr ichida tilimizda ushbu soha doirasida katta o'zgarishlar yuz berdi: ayrim nomlar arxaiklashdi, ayrim nomlar o'zi ifodalagan kiyim-kechakning xalq, turmush tarzida qo'llanishi nihoyatda cheklanishi yoki yuqolishi natijasida istorizmga aylandi, kiyim va uning qismlari, xususan, materiallarini anglatuvchi ko'plab yangi so'zlar faollashdi, bu jarayon tinimsiz davom etmoqda. Shuning o'zi ham kiyim-kechak nomlari tilda turg'un emasligi, tabiiy ravishda xalqning turmush tarsi, iqtisodiy salohiyati, ma'naviy-estetik dunyoqarashi kabi omillarga bog'liq holda muttasil o'zgarishga uchrab turushini ko'rsatadi. Buni kiyim-kechak va uning turlarini tarixiy nuqtayi nazardan o'rgangan tadqiqotchilar xulosalari ham tasdiqlaydi.

3.2-§. Dialektizimlarni to'plash va xaritaga tushurish masalasi

Hozirgi o'zbek adabiy tilida maishiy leksika muayyan darajada qiyosiy-tarixiy, leksik-semantik jihatdan alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan. L.X.G'afurov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'zbek tilining maishiy leksikasi ilk bor "oshxona buyumlari nomlari", "ko'rpa-to'shak nomlari", gigiyenaga oid buyumlar nomlari", uy jihozlari nomlari", uy-joy qurulishi nomlari", "yoritish uskunalari nomlari", xo'jalik asboblari nomlari", "isitish va sovutish qurilmalari nomlari", "aloqa va xabar anjomlari nomlari" singari leksik-semantik guruhlarga ajratilib, tahlil qilingan.

Areal lingvistik tadqiqotlarning qiziqarli tomoni shundaki, unda bir tilda so'zlashuvchi xalqlar leksikasi turli hududlarda turlicha qo'llaniladi. Surxondaryo vohasi ham ana shunday juda keng leksik qatlamga ega bo'lgan hududlardan biri hisoblanadi. Surxondaryoliklar nutqida qo'llanuvchi maishiy leksikani ifodalovchi birliklar respublikamizning boshqa hududlarida yashovchilar leksikasidan ancha farqlanadi. Misol uchun: uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechak nomlari, taqinchoq va zeb-zinat nomlari, oziq-ovqat

²³ Асомутдинова М. Ўзбек тилида кийим-кечак ва унинг қисмлари номлари: Филол. Фанлари номзоди
...дисс. – Тошкент, 1970.

nomlari, qishloq xo'jalik buyumlari nomlari kabi dialektal leksemalarning Surxondaryoning mahalla va qishloqlarida yashovchi o'zbeklarning nutqiga xos. Bu so'zlarning ba'zilarida (tuzdon-namakdon, bolish-bolisht, do'ppi-toqqi, nimcha-gupicha, beshbarmoq-ko'lova) tojik tilining ta'siri sezilsa, ba'zilar (*cholop-chalop, qatlama-qalama, yostiqlik-astikli*) fonetik farqlar asosida shakllangan.

Ma'lumki, har bir til leksik sistemasiga shu tilda mavjud bo'lgan barcha leksik birliklar, turg'un til birikmalari, frazeologizmlar va leksikalizatsiyalashgan elementlar kiradi. Odatda, ilmiy adabiyotlarda til leksik tarkibi deganda, faqat adabiy tilda mavjud bo'lgan leksik birliklar, adabiy til me'yorlari bilan bog'liq bo'lgan til leksik vositalari tushuniladi.

O'zbek tili leksik tarkibi ham nafaqat adabiy til leksikasiga kiruvchi, balki umumxalq o'zbek tili, dialektlar, shevalar leksikasiga taalluqli bo'lgan leksik-semantik birliklarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Bu ikki leksik qatlam, ya'ni adabiy til va umumxalq tili, dialektlar, shevalar leksik qatlamlari doim bir-biri bilan aloqada, bir-biriga payvast va bir-birini to'ldirib turuvchi, doimiy xarakterdagi leksik qatlamlardi. Ularning bunday o'zaro ta'siri ularning bir-birini boyitishida, zamonga moslashib borishida, til ichki qurilishining takomillashib taraqqiy qilishida, zarur til vositalarining barqarorlashishi va me'yorlashishida ko'zga tashlanadi.

Bu jihatdan qaraganda umumxalq tilining barcha hududlardagi til vositalari, tarmoqlar leksik birliklari, sohalarga tegishli har xil atamalar adabiy til taraqqiyoti uchun ham, tilshunoslik fani rivoji uchun ham katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, o'zbek tilshunosligida sohalar leksikasiga xos bo'lgan nomlar shu davrga qadar birmuncha o'rganilgan bo'lsa ham Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidagi o'zbek shevalaridagi uy-ro'zg'or buyumlari nomlari maxsus tadqiqot ob'ekti etib tahlilga tortilmagan. Shu bois, bu hudud o'zbek shevalaridagi uy-ro'zg'or buyumlari nomlarini qiyosiy-tarixiy jihatdan o'rganish, lisoniy xususiyatlarini tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir.

Tilning lug'at boyligini tizim sifatida o'rganishda leksemalarning gipo-

giperonomik munosabatlariga tayanish muhim ahamiyatga ega: u tabiat va jamiyatdagi narsa-predmetlarning, voqea-hodisalarning tildagi nomlari bo'lgan leksemalarning ma'nolarini va shu ma'nolar orqali borliqdagi narsa-hodisalarning o'zlari haqidagi tushuncha-tasavvurlarni umumlashtirish va farqlash imkonini beradi²⁴.

Shu bois, o'zbek tilidagi uy-ro'zg'or buyumlari nomlarini ham tizim sifatida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir va ularni quyidagi leksik-semantik guruhlarga bo'lib o'rganish mumkin:

- a) oshxonaga oid uy-ro'zg'or buyumlari nomlari;
- b) uy jihozlari nomlari;
- v) xo'jalikka oid uy-ro'zg'or buyumlari nomlari.

Bu guruhlar o'z ichida yana kichik guruhlarga bo'linadi va ular ham uy-ro'zg'or buyumlarining turlarini bildiradi.

Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidagi o'zbeklari tilidagi uy-ro'rg'or buyumlari nomlarini tahlil qilish, o'zbek umumxalq tili doirasidagi o'rni va mavqeini aniqlash, uning adabiy tildagi variantlariga munosabati yoki faqat dialektal variantlarini tadqiq etish – bu nomlarning o'zbek tili leksik sistemasidagi o'rnini aniqlashga katta yordam beradi.

O'rganilayotgan hudud o'zbek shevalaridagi xo'jalikka oid uy-ro'zg'or buyumlari o'zining xilma-xilligi bilan ajralib turadi: Masalan, *so'zan, igna-iyna, tavar-tabar, bel, belcha, ketmon, chovidish, ketmoncha, qaychi, bigiz, qayroq, urchuq, o'ymoq, angisht o'rmak, o'roq-dost, bolta, shoxa, chaykun, kelchak tosh, chovgum, zog'no'l* kabilarni kiritish mumkin.

Yuqoridagi keltirilgan xo'jalikka oid uy - ro'zg'or buyumlari nomlarini quyudagi guruhlarga bo'lib o'rganamiz:

1. Mehnat qurollari nomlari;
2. Tikish-bichishda foydalanadigan uy-ro'zg'or buyumlari nomlari;
3. Xo'jalikka oid har xil turdagi ro'zg'or buyumlari nomlari.

²⁴Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – B. 111-123.

Sariosiyo o'zbek shevalarida qo'llaniladigan xo'jalikka oid uy-ro'zg'or buyumlari nomlari o'ziga xos amaliy ahamiyatga ega.

a) urf-odatlarni ifodalovchi leksemalar

Sheva leksikasining kuzatish shuni ko'rsatadiki, jamiyat taraqqiyoti aholining integratsiyasi va globallashuv an'analari rivojlanib bormoqda. Shuning natijasida ko'pgina tushuncha va predmetlarni ifodalovchi so'zlar iste'moldan chiqmoqda. Ayni paytda, inson jamiyatda mavjud urf-odat va ijtimoiy udumlar ancha. Shu sababli Surxondaryo shevalari leksikasidagi ijtimoiy qatlam yoki etnografizmlar deb ataluvchi birliklarni muhim ahamiyat kasb etadi. Biz quyida ular haqida fikr yuritamiz.

O'zbeklar urf-odatlarida ayrim holatlarda beshigini tebratish, oq sut berish tarzidagi barqaror birikmalar ham uchrab turadi. Bunday yaxlit qurilmalar ham bevosita urf-odatlarimiz, an'alarimiz natijasida vujudga kelgan, ya'ni o'zbek xalqida tarbiyalab voyaga yetkazgan ota-onaning hurmatini joyiga qo'yish, uni rozi qilish juda katta ma'suliyat hisoblanadi²⁵.

Urf-odatlarning tarixi insoniyatning iqtidosiga borib taqaladi. Ibtidoiy jamiyatda dastlab diniy tasavvurlar bo'lmagan. Urf-odatlar kishilarning mehnati zaminida vujudga kelib, jamiyat rivojiga, odamlar ongining o'sishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

b) inson tug'ilishi bilan bog'liq so'zlar.

Ma'lumki, insonni kamol toptirish, uning go'daklik chog'laridanoq boshlanadi, har bir xalq o'z odati bo'yicha bola tug'ilishi bilanoq turli-tuman rasm-rusumlarni o'tkazadi.

Folklorshunos O.Safarovning yozishicha "Doya, enagalar va kinnachilar ishtirokida chaqaloq suvga cho'miltirayotganda, birinchi marta beshikka solishda, ilk bor tishi chiqqanda, birinchi soch oldirishda, birinchi qadam

²⁵Jo'raxonova.S.A. Urf-odatifodalovchileksemalardatabuvaevfemizmlar.- Scientific Journal Impact Factor:

tashlaganda, ilk bor tirnog'ini olganda o'ziga xos marosimlar o'tkaziladi"²⁶. Bu marosimlarning o'tkazilishi turli hududlarda turli xil nomlansa ham leksik-semantik jihatdan bitta umumiylikka ega. Misol uchun Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida ham *kindik kesish, yeti chilla, yigirma chilla, qirq chilla, beshikka solish* kabi etnografik atamalar hozirda ham aktiv qo'llanadi.

Beshikka solish - chaqaloqni beshikka solishda bu marosim keksa ayollar tomonidan bajariladi. Bu marosimni o'tkazish uchun quyidagi beshik anjomlari taxt qilinadi.

Bolishcha - chaqaloq oyog'i ostiga qo'yiladigan yostiqa;

Lo'lapech - chaqaloqni o'rab, qundoqlab qo'yiladigan mato;

Taglik - chaqaloq tagiga to'shaladigan yumshoq mato;

Dastband - chaqaloqning qo'lini bog'lash uchun yasalgan maxsus mato;

Poband - chaqaloqning oyog'ini bog'lash uchun ishlatiladigan mato.

Bundan tashqari *nayak, siva* kabi anjomlar ham qoidaga muvofiq beshikka o'rnatilib, yosh onaga chaqaloqni beshikka solish qoidalari o'rgatiladi.

d) **to'y va marosim bilan bog'liq leksemalar.** Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, Surxondaryo viloyati o'zbek shevalari, xususan qipchoq shevalarida uchraydigan ko'pgina etnografizmlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning ekvivalenti yoki boshqacha shaklda ko'rinishi boshqa sheva vakillari nutqida uchramaydi. Ijtimoiy hayotda kirib kelgan har bir yangi hodisa ma'lum bir so'z-atama va istiloh bilan ifodalanadi.

Xalq urf-odatlarini, jumladan, Surxondaryo xalqi urf-odatlarini juda qadimiy bo'lib, uzoq o'tmishdan darak beradi. Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumani xalqida nikoh to'yi marosimiga xos ayrim atamalar quyidagilar:

Ko'rmana - kelinni ilk bor ko'rishda qarindoshlar, yaqin kishilar tomonidan beriladigan sovg'a;

Fotiha - qiz bilan yigitni to'ydan oldin unashtirish marosimi. Yigit bilan qizning to'yga rozi bo'lganidan so'ng fotiha to'yi o'tkazilib, unga qarindoshlar va yaqin kishilar taklif etiladi.

²⁶Safarov O. Bolalarni erkalovchi xalq qo'shiqlari - Toshkent - Fan, 1982, B-31.

Kelin salom – kelinning to‘ydan keyingi kun kuyovning qarindoshlariga salom berish marosimi.

Kampir o‘ldi marosimi – bu marosim nikoh to‘yining bir qismi hisoblanadi. Bu marosim ba‘zi joylarda kelinning uyida, ayrim hududlarda kelin kuyovnikiga olib kelingandan keyin amalga oshiriladi. Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida bu marosim kelin kuyovning uyiga kelgandan keyin amalga oshiriladi. Bu udumga ko‘ra, bir kampir o‘zini o‘lganga solib, kelinning oldiga yotib oladi. Kelin unga biror narsa hadya qilgach, kampir “tirilib”, uzoq vaqt uxlaganini va uyqusida tush ko‘rganini, tushida quyosh va oyni, yulduzlarni ko‘rganini aytadi. Bu tush ramziy ma’noda kelin-kuyovni va ularning bo‘lajak farzandlarini anglatadi.

Chopon – ichiga paxta qavib tikiladigan uzun milliy kiyim. Nikoh to‘yimarosimida kuyovga yoshi ulug‘ qarindoshlar tomonidan kiydiriladi.

Paxta solish marosimi – kelinni ko‘rpa-to‘shagini qavish marosimi.

Surmana marosimi – kelinni ota uyidan olib ketilayotganda mahalladagi bolalar tomonidan yo‘lni oldi to‘siladi va kuyov navkarlari tomonidan ularga pul berilgandan keyin yo‘l ochiladi.

Tuxm yashirish marosimi – bu udumga kelinni qarindoshlari to‘qqiz tovoq uchun qaynatilgan tuxmlarni yashirishadi va uni kuyov navkarlari topishi kerak bo‘ladi.

Bundan tashqari Surxon xalqining nikoh to‘yi tizimida bir qancha marosimlar mavjud: *qiz ko‘rar, uy ko‘rar, to‘y yuborish, qiz oshi, kelin tushdi, quda chaqiriq, ilik yedirish marosimi, chopon kiydirish marosimi, kelinni oldini oldini to‘shish* kabi marosimlar va ular bilan bog‘liq urf-odatlar.

e) diniy urf-odatlar va yig‘inlar bilan bog‘liq leksemalar.

Diniy tushuncha va tasavvurlar qadimdan paydo bo‘lgan. Ayniqsa, arablar bosqinidan keyingi davrda musulmoncha urf-odatlar xalq ongiga singib qolgan. Shuning uchun ham hozirgi davrda qanday marosim va ma‘raka bo‘lsa, ma‘lum darajada diniy xarakterda bo‘ladi. Diniy tushunchalar yoki diniy marosimlar inson ruhiyati, dunyoqarashi yoki tushunchasiga qarab, shakllanadi. Misol

uchun biron narsaga atab, yoki kasallikdan forig' bo'lsa, yoki biron falokatdan omon qolsa, albatta, Xudo yo'liga biron narsa atab, sadaqa beradi. Shunga o'xshash marosimlar hozir ham hayotimizda keng qo'llaniladi.

Iftor – ro'zadorga beriladigan osh;

Iftorlik – ro'zadorlar uchun tayyorlangan taom;

Saharlik I – ro'zadorning saharlik taomi;

Saharlik II – ro'zadorlar uchun beriladigan osh, sadaqa;

Fitri ro'za – ro'za oyida oiladagi jon boshiga beriladigan pul;

Yoramazon – ro'za oyida yosh bolalar tomonidan eshikma-eshik yurib ijro qilinadigan qo'shiq;

Iyd namozi – hayit kunida o'qiladigan namoz;

Mulla chaqirish – marhum haqiga duo o'qitish;

Zakat – shariat hukmi bo'yicha bir musulmon o'z mol-mulkidan qirqdan birini sadaqa qilishi;

Taroveh – ro'zadorlarning yig' ilishib o'qiydigan namozi;

Maishiy leksik birliklar.

Xo'jalik va ro'zg'or asboblarini ifodalovchi so'zlar. Sariosiyo xalq shevalaridagi o'ziga xoslik sheva vakillari nutqida barcha sohalarda uchraydi. Sariosiyo o'zbek shevalarida uchraydigan xo'jalik va ro'zg'or asboblarini ifodalaydigan etnografik birliklarining ko'pchiligida boshqa o'zbek shevalarida bo'lgani kabi umumiylik ham mavjud.

Bular: *xig* – echki terisidan tayyorlangan ro'rg'or buyumi bo'lib, undan asosan chuchuk qatiqni zardobidan ajratib olish maqsadida ishlatiladi. *O'xloq*, *kafkir* (*qirg'ich* – Sariosiyo tumanidagi Dashnobod qishlog'idagi varianti), *nonpar* (*chekich* – Dashnobod shevasida), *rafida*, *surpa*, *siyxak* kabi. Bu etnografik birliklar barcha o'zbek shevalari uchun mushtarak bo'lib, deyarli hammasida bir xil leksik-semantik xususiyatga ega.

Ro'zg'or asboblarini ifodalovchi terminlarning yana bir xususiyati shuki, ularning ba'zilar umuman, boshqacha ko'rinishga ega, ammo har xil nomlansa ham, leksik-semantik va grammatik jihatdan bir xil tushuncha va bildiradi.

Masalan, *lalicha-tarelka*, *la'li-lagan*, *supra-surpa*, *jo'va-o'xlovcha* kabi.

Bu guruhda uyni tozalashda, kiyimlarni yuvishda va boshqa narsalarda foydalaniladigan xo'jalikka oid har xil turdagi buyum nomlarini kiritdik. Masalan, *supurgi* (*shipirtqi*, *shibirtki*) – uyni supirish-sidirish, tozalash uchun tariq, *makkasupurgi* – hovlini supirishga ishlatiladigan ro'zg'or buyumi.

Kiyim-kechakni ifodalovchi so'zlar. Har bir xalqning urf-odatiga xos va mos keladigan milliy kiyimlari mavjuddir.

Kiyim-bosh aslida insonning hayotiy zarurati natijasida shakllangan. Milliy kiyimlarning har bir xalqda o'ziga xos belgilari bilan ajralib turishi ularning urf-odatlariga bog'liqligidan tashqari dini va shu yerning iqlim sharoitiga ham bog'liqdir. Har bir bosh kiyimi, ustki kiyimning o'ziga xos belgilari va kiyish davri bor.

Lachak – xotin-qizlarning bosh kiyimi²⁷. Lachak eng asosiy bosh kiyimlardan biridir. Uni ayollar farzandli bo'lgach, kiyib yurishgan.

“Burhoni qote”dagi ma'lumotlarga ko'ra, qadimda lachak javohir va durlar bilan bezatilgan holda ham o'ralgan. Tadqiqotchilarning fikricha, lachak so'zining etimologiyasi ochiq yalang (qat) ma'nosidagi luch so'ziga borib taqaladi.

Hech qanday xalq o'z taraqqiyoti yo'lida boshqa xalqlar bilan madaniy, iqtisodiy, boshqa tomondan aloqa qilmasdan, ayrim holda xo'jalik yuritishi mumkin bo'lmaganidek, biror-bir xalqning tili, xususan, lug'at boyligi ajralgan holda rivoj topishi mumkin emas. Xuddi shunday o'zbek tili ham o'z tarixiy taraqqiyoti davomida bir qancha tillar bilan munosabatga kirishgan, ulardan so'z olgan, so'z bergan. Shu tariqa leksik qatlamda turli tillardan o'zlashgan so'zlar paydo bo'lgan. Kiyim-kechak nomlari ham faqat o'z qatlamga tegishli bo'lmay, ularning orasida ham turli tillarga oid o'zlashmalar uchraydi. Alisher Navoiy asarlarida uchragan nomlar ham bundan mustasno emas, albatta.

Tadqiqotimiz jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Mazkur tadqiqot ishida Alisher

²⁷O'rozov E. Janubiy Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalari. – Toshkent: Fan, 1978. B-76.

Navoiy asarlarida o'zlashgan kiyim-kechak leksemalari xususiyatlari haqida fikrlar tahlil qilindi.

Alisher Navoiy asarlarida turkiy nomlar bilan birgalikda boshqa tillardan, xususan arab, fors-tojik tilidan o'zlashgan kiyim nomlari ham uchraydi. Alisher Navoiy asarlaridagi o'zlashgan kiyim nomlarini quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Arab tilidan o'zlashgan kiyim-kechak nomlari.
2. Fors tilidan o'zlashgan kiyim-kechak nomlari.

O'zbek tilidagi kiyim-kechaklar borasida maxsus tadqiqot ishi olib borgan M.Asomiddinova arab tilidan o'zlashgan kiyim-kechak nomlarini o'zbek tilida tutgan mavqeiga ko'ra ikki qismga ajratadi:

a) eski o'zbek tiliga xos, hozirda faqat sahna kiyimiga aylangan, tarixiy voqelikni yoritgan badiiy, tarixiy, yozma adabiyotlarda uchraydigan nomlar.

b) eski o'zbek tilida uchrovchi va hozirgi o'zbek tilida keng qo'llanuvchi nomlar: *astar, libos, lozim, baxmal* kabilar²⁸.

Bugungi kunda tilimizda faol qo'llanadigan va barcha uchun tushunarli *libos* so'zi arabchadan o'zlashgan bo'lib, umuman kiyim ma'nosini bildiradi.

Xil'at – o'tmishda ham xuddi hozirgi vaqtda bo'lgani kabi erkak va ayollarga xos kiyim turi hisoblanadi. Bir oz fonetik o'zgarishga uchragan bu so'z endilikda xalat shaklida qo'llanmoqda.

Xalat – o'zi ham, engi ham uzun va keng bo'lgan, tugma o'rniga belbog' qo'llanadigan ustki kiyim (asosan xotin-qizlar, ba'zan erkaklar ham kiyadi).

Sariosiyo tumani o'zbek shevalarida qo'llanilgan kiyim-kechak nomlariga quyidagilarni keltirish mumkin: *yaktak, jelak, surp yaktak, cho'ntak, do'ppi, toqi, qalpoqcha, qo'lqop, ishtonbog', ishtonpocha, ro'mol, eng, salloti shim, quroq, maxsi, namat, beqasam to'n, chapon, kallapo'sh, faranji, sara, nimcha, gupicha*, kabilar.

Taqinchoq va zeb-ziynat nomlari – milliy kiyimlarni yanada chiroyliroq ko'rinishi uchun milliy taqinchoqlardan ham foydalanishgan. Milliy taqinchoqlar asosan aslzoda-zodagon ayollarda bo'lgan. Hozirgi davrda esa

²⁸ Asomiddinova M. Kiyim-kechak nomlari - Toshkent, 1981.14-B.

deyarli milliy taqinchoqlarning nomlari ham unitilgan. Chunki, fan-madaniyat va ishlab chiqarishning taraqqiyoti natijasida milliy taqinchoqlar hamda ularning nomlari butunlay iste'moldan chiqib, arxaiklashib, passiv so'zlar qatlamiga o'tib ketgan.

Qadimdan Surxon vohasi aholisiga tegishli zeb-ziynat buyimlari boshqa hududlaridan farq qilgan. Libos elementlari va taqinchoqlar egasining o'ziga xos etnik va ijtimoiy kelib chiqishini ko'rsatib turgan.

Hudud ayollari zargarlik buyumlaridan zebigardon, gajak, uzuk, zirak va bilaguzuk taqishgan.

Zeb-ziynat buyimlari taqilishiga ko'ra, **bosh** (*tillaqosh, tillabargak, bodomoy, bibishak, gajak va boshqalar*);

bo'yin-ko'krak (*turli marjon va marvaridlar, zebigardon, nozigardon, jevak, bo'yintumor, ko'kraktumor, qo'litiqtumor kabi tumorlar, bozuband va boshqalar*);

soch (*sochpopuk, tuf va boshqalar*);

quloq-burun (*buloqi, isirg'alar va boshqalar*);

qo'l (*uzuk, bilaguzuk*).

Zeb-ziynat buyumlari xillari farqlanadi. Zeb-ziynat buyumlarining paydo bo'lishi tarixi juda qadimiy davrga borib taqaladi.

O'zbekistonning turli viloyatlarida yasalgan zargarlik buyumlari o'ziga xos mahalliy xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Xorazmlik zargarlar tayyorlagan zeb-ziynat buyumlari salmokdorligi, serhashamatligi va ko'rinishi bilan ajralib turadi. Samarqand zargarlari yaratgan taqinchoqlarda Toshkent hamda Buxoro zargarligining ta'siri seziladi. Buxoro zargarlarining Qashqadaryo, Surxondaryo viloyati zargarlarining ishlarida ham ta'siri katta bo'lgan. Surxondaryolik kelinlar to'yida (nikoh libosi bilan birga) boshga *tillaqosh, tillabargak, gajak, quloqqa isirg'a, bo'yinga ko'krakka tushib turadigan zebigardon, jevak, xafaband, marjon, bo'yintumor, sochga sochpopuk, qo'lga bilaguzuk va uziklar taqqishadi.*

Tillaqosh – ayollarning bosh kiyimi ustidan peshonaga taqiladigan

taqinchog'i. Tilla yoki tilla suvi yugurtirilgan kumush va boshqa metallardan yasaladi.

Tillabargak – ayollarning bo'yniga taqaladigan taqinchog'i.

Gajak – ayollarning ziynat buyumi bo'lib, chakkaga taqiladigan juft taqinchoq. Ikkita ilgagi bo'lib, biri quloqqa, biri bosh kiyimiga yoki sochga mustahkamlanadi.

Isirg'a – xotin-qizlar quloqqa taqadigan bezak buyumi.

Zebigardon – ziynat buyumi, ayollarning bo'yinga taqilib ko'krakka tushib turadigan taqinchog'i. 3-shakldor yirik turunj va unga ikki tomonidan simmetrik birlashgan 6-huqqachalardan iborat bo'lib, ular o'zaro halqa, sadaf, marjonlardan tuzilgan zanjirlar bilan bog'langan; o'rtadagi ikki parallel huqqacha markazida kichik turunji bo'lgan zanjir orqali o'zaro bog'lanib 3-qatini hosil qiladi.

Jevak – ayollardan bo'yniga taqadigan bezak buyumi, taqinchoq. Qolibaki usilida oltin, kumushdan tayyorlangan.

Xafaband – ayollarning bo'yin taqinchog'i. Bo'yinni o'rab turadigan tasma hamda marjon va turli shakldagi noziklardan terib yaratiladigan to'rsimon shokilali tuzilishga ega turlari bor.

Bo'yintumor – ayollarning bo'yinga taqadigan ziynat buyumi. Bo'yintumor asosiga marjon, sadaf va boshqa munchoqlar, bargaklar, ba'zan ignasimon shokilalar osiladi.

Sochpopuk – ayollarning soch taqinchog'i. Uchlari popukchalar bilan tugallanadigan 2-4 (ba'zan 15-20 va undan ortiq) qalin qora ip, ipak va jundan eshilgan tutamlardan iborat.

Mehnat qurollari nomlari. O'rganilayotgan hududdagi uy-ro'zg'or buyumlari nomlari leksik tizimida mehnat qurollari nomlari ko'pchilikni tashkil etadi. Bu guruhga yerni chopishda, ekinlarni begona o'tlardan tozalashda, taxtalarni arralashda foydalanadigan asbob-anjom nomlarini kiritdik.

O'raq – turli boshqli ekinlar, beda, pichan va o'tlarni qo'lda o'rish uchun ishlatiladigan, beli bukik, o'tkir tig'li mehnat qurollari nomini ifodalaydi.

Bel – yerni qazish, kovlash, ag‘darish yoki kurash uchun yog‘och yoki metaldan yasalgan uzun sopli asbob nomini bildiradi. Bu anjomning kichkina xili Sariosiyo tumanida *belcha* shaklida nomlanadi. Bel tub so‘z bo‘lib, cha kichraytirish affiksi qo‘shilgan va kichkina kurak ma‘nosini anglatadi.

Shuningdek, hududning ayrim tumanlarida xuddi shunday uy-ro‘zg‘or anjomi nomi kurakcha tarzida yuritiladi.

Ketman – yuzi katta, orqa tomonida dasta suqib qo‘yadigan zo‘g‘atasi bor, yer chopish, loy qilish va boshqa ishlarda ishlatiladigan dastaki asbob. Bu anjomning kichkina xili Sariosiyo tumanida *ketmoncha* shaklida nomlanadi. Ketmon tub so‘z bo‘lib, cha kichraytirish affiksi qo‘shilgan va kichkina ketmoncha ma‘nosini anglatadi.

Shoxa – odatda besh tishli sanchig‘i bo‘lgan, beda, pichan va boshqalarni olish, surish uchun ishlatiladigan uzun sopli asbob. Bu atama o‘zbek adabiy tilida panshaxa deb yuritiladi. O‘rganilayotgan hududda panshaxaning yana bir turi kosh (uch tishli panshaxa) deb nomlanadi.

Taxtalarni arralashda qo‘lallanadigan xo‘jalik uy-ro‘zg‘or buyumini pichqi (qo‘l arra) deb atashadi.

Tikish-bichishda foydalanadigan uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari.
Xo‘jalikka oid tikishda foydalanadigan buyum nomlariga quyidagilarni kiritish mumkin: igna, iyna, nina, so‘zan, so‘zanak, qaychi, o‘ymoq, angisht, bigiz, payatnik, metirka, andoza, do‘kon kabi.

Iyna – bir tomoni nayzasimon, ikkinchi tomoni teshik bo‘lib, teshigidan ip o‘tkazib, narsa tikishga mo‘ljallangan ingichka metal asbob nomini bildiradi.

Tevana – Sariosiyo hududida xalta, qop tikish uchun ishlatiladigan yo‘g‘on, egik ignani tevana deb atashadi.

Kiyim – kechakni ifodalovchi so‘zlar:

Sariosiyo tumani aholisi turli millat vakillari va har xil tumanlardan kelib yerni o‘zlashtirishlaridan keyin tub aholi bo‘lib qolganlari uchun dialektlar ham shunday o‘ziga xosligi bilan xarakterlanadi.

Shevaga xos so‘zlar orasida ijtimoiy leksikaga oid oziq-ovqat, kiyim-

kechak, uy-ro'zg'or buyumlari nomlari muhim o'rin tutadi. Kiyim-kechak nomlarining aksariyati Surxondaryo vohasida qadimdan qo'llanilgan va bugungi kunda ham ko'pchiligi o'zgarishsiz saqlanib kelinmoqda. Chunki xalqimizda turli sayllar, bayramlar, festivallar tashkillashtirilib kelinmoqdaki, bu tadbirlar milliy madaniy merosimiz hisoblangan kiyim-kechak nomlarining avloddan-avlodga o'tib kelishiga zamin yaratmoqda.

Quyida tahlilga tortilayotgan kiyim-kechak nomlarini ifodalovchi dialektizmlar hozirgacha xalq orasida saqlanib qolgan.

Ro'mol – rūmol, rōymol, lačak, sārñädoz, kallapech;

Rōmol – boshga o'raladigan (ayollar, ro'mol bog'lash deb ham aytishadi) kiyim, aslida fors-tojikcha "ro'" – yuz, "molidan" – atrmoq degan ma'noni bildiradi. Kelib chiqish tarixi erkaklarning peshonasiga bog'langan oq ro'molga borib taqaladi.

Kallapech esa salla kiyadigan momolar yoki kelinlarning bo'ynidan tushibturuvchi ro'moli. Hozirgi kunda ham yoshqizlar, ayollar hijob o'rashsa, kallapechdan foydalanishadi.

Shabpo'sh, kallapo'sh(tojikcha), mullo shapka;

Sarpo'sh erkaklarning ibodatga xos bosh kiyimi bo'lib, asosan, oq rangda, ba'zi joylarda esa rangli bo'ladi. Arab tilidagi tāqīyah "ehtiyotkorlik" so'zidan olingan. Ba'zi oilalarda hali hanuzgacha beshikdan to keksalikkacha uyda kiyiladigan kiyim sifatida kiyiladi. Paxtadan qilingan matodan tikilganligini uchun juda issiq kunlarda soch olinganida inson salomatligiga zarar yetmasligi uchun ham kiyiladi.

Belbog' – belqārs, miyonband (tojik tilida)

Erkaklar to'nining ustidan, yoki, kiyimlar (yaktak)ining ustidan bog'lanadigan kiyim. Hozirda faqat otaxonlarning bellariga, kuyovlarning kuyovlik to'ni ustidan bog'lashda foydalaniladi.

Sariosiyo tumanida kiyim-kechak qismlari ham o'ziga xos dialektal nomlanishga ega.

Yeng – qōlqoq, eñ, jeñ, ostin, āstīn (tojik tili ta'siri);

Qo'ldoq-Ba'zi kelinlarning to'ylarga kiyadigan kiyim qismi bo'lib, naqsh solib kashta yo zardo'zi qilib bezatilgan alohida yengi bo'ladi. To'ydan boshqa kunlarda esa ko'ylakning o'zini kiya olishi mumkin bo'ladi. Bugungi kunda ham *qo'ldoqlar* tikiladi. Qo'lni issiqdan saqlash, namozxon qizlar kaltaroq yengli kiyim kiyib yurgan bo'lsa, namoz o'qish uchun ham *qo'ldoq* olib yurishadi.

Ba'zida erkaklar ham oq yengi kir bo'lmasligi uchun *qo'ldoq* larni kiyishadi. Masalan, hisobchilarda ish vaqtida *qo'ldoqlardan* hanuzgacha foydalanishadi. Yoki haydovchilar yozda quyoshdan qo'llari kuyib qorayib ketmasligi uchun *qo'ldoq* kiyadilar.

Etak-xalot, etäk, yetäk, fartuk (rus tili)

Kiyimning etak qismi bo'lib, *xalot* deb ham aytishgan. Hozirgi kundagi ko'pchilik tomonidan rus tilidan o'zlashgan deb hisoblanadigan *xalat* so'zi shu so'zdan kelib chiqqan deyishadi keksa onaxonlar, ba'zi yoshi ulug'larning aytishicha, bu so'z boshqa tillarga o'tgan. *Xalot* so'zi paxta terimidagi etak – *fartukka* ham daxldor, ya'ni *xalot* so'zidan o'sib chiqqan. Qadimda vohada eski kiyimlarning etagini biror yukni ko'tarishga mo'ljallab qirqishgan. Bu paxta terimida, o'tin tashishda, ayniqsa, uy ishlarida ko'zga tashlanadi.

Xalat deb nomlanadigan kiyim ham turkey tilga aslida arab tilidan kirgan bo'lib, "hil'ät"-sharafli kiyim ma'nosini beradi.

Yaktak –yäktäg yäxtäk

Erkaklar kiyimi. Tojik tilida yak sanoq soni bilan 'ost', 'pastkiqism' ma'nosini anglatadigan tag so'zining qo'shilishidan hosil bo'lgan "tagibilanbir" ko'ylak. Paxtali yuqa matodan tikilgan kiyim turi bo'lib tanaga juda yoqadigan – "*yaktak*" saqlaydigan erkaklar kiyimidir. Asosan, yozda kiyiladi. Sovuq kunlarda ham ichki kiyim sifatida kiyib yurish odat bo'lgan. Hozirda ko'proq novvoylar, tibbiyot xodimlari, qassoblar, bozorlarda savdo xodimlari, oshpazlar, milliy oshxona xizmatchilari *yaktak* ni ish kiyimi sifatida kiyishadi.

Faranji –jeläk, elän, jelan, kurta, kuta
Ayollarbosh kiyimi bo'lib, erkaklar kiyadigan jelakdan butunlay

farqlanadi. Ikki yengi tikib qo'yilgan, ya'ni yopiq. Qadimda bu yenglardan sumka sifatida foydalanishgan. Kerakli buyumlar, pul, qand-qurs solib yurishgan. Hatto bolalarni solib yurishda ham foydalanilganligi haqida ma'lumotlar bor. Ba'zilar ikki yengini biriktirib ham tikib qo'yishadi, ba'zilar esa bir yelkasini boshiga ilib bir yengini osiltirib kiyishadi. Hozirgi kunda yoshi ulug' ayollargina kiyishadi.

To'n – chopon, chapon (tojik tilida)

Bu so'z asosan xalqimizning ustki kiyimi hisoblanadigan paxtalik to'nning sinonimidir.

Ayrim mualliflarning fikricha, chopon so'zi fors tojikcha shaban// cho'bon so'zidan rivoj topgan bo'lib, turkey tillarga, undan rus tiliga o'tgan²⁹.

Po'stin – (forscha-tojikcha po'st – teri, -in – affiks) junini to'kmay oshlangan teridan (qo'y terisidan) chopon formasida tikiladigan sovuqda kiyiladigan ustki kiyim.

Gupicha – kamzul, nimcha.

Gupicha - astar-avralli, oldi ochiq, tugmali, ko'ylak ustidan kiyiladigan ustki kiyim.

Oziq-ovqat nomlarini ifodalovchi so'zlar: Har bir hududning o'ziga xos oziq-ovqat nomlari mavjud. Tadqiqotimizda Sariosiyo tumanining quyidagi oziq-ovqat nomlarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Sirdona – undan tayyorlanadigan mahsulot, u asosan yog' bilan qaymoq aralashmasiga pishiriladi.

Qaymoq atola – Sariosiyo tumanining tojik mahallalari orasida ko'p tayyorlanadigan ovqat turi. U barra qaymoqdan qilinadi.

Kadu, moygi, moshkichiri, moshova, suyuq, durdak, kulo'pto'ppa, ko'lova, fatir, xonim, qalama, cholob, nonjo'shak, shirbirinj, kartoshkaobak va boshqalar.

²⁹ Qarang: Qazaq tilinin tarixi turali zertteuler. Almati 1965, c. 84.

3.3-§. O'zbek tilshunosligida areal tadqiqotlarni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari

Fanning taraqqiyot dialektikasi hamisha ikki turdagi usulning, ya'ni o'rganish va talqin etishning imperik-tavsifiy va tizimning talqini bosqichlarning bir-biriga tayanish va bir-birini to'ldirish asosida sodir bo'ladi. Bu fan inkishofi dialektikasining umumiy qonuni bo'lib, o'zbek tilshunosligi ham undan chetga chiqolmaydi. Fanimizning 40-60, 70-80-yillardagi taraqqiyot xususiyatlariga e'tibor bersak, o'zbek tilshunosligida, jumladan, dialektologiyasida ham yuqorida sanab o'tilgan bosqichlar dialektikasining in'ikosini ko'ramiz.

50-60-yillarda o'zbek dialektologiyasi mintaqaviy, hududiy sheva xususiyatlarini tavsifi – hodisalar tabiati va vokalizatsiyasi masalalariga asosiy e'tiborni qaratib, akademiklar Viktor Vasilevich Reshetov, Shonazar Shoabdurahmonov, professorlar Ulug' Tursunov, Fattoh Abdullayev, Sobirjon Ibrohimov, Mustaqim Mirzayev, A'zam Shermatov, Xudoyberdi Doniyorovkabi mumtozlarimizning, ularning ko'p sonli shogirdlari, izdoshlari shijoati, mashaqqatli mehnati samarasi o'laroq, o'zbek hududiy shevalarining mukammal tavsifi yaratildi. 1960-1970-yillarda avj olgan dialektologik tadqiqotlarning 1980-1990-yillarda birmuncha so'nishi fanimizda taraqqiyotning bir dialektik bosqichi – imperik-tavsifiy ishlarning ma'lum darajada o'zining yuqori taraqqiyot cho'qqisiga yetganligi, yangi tahlil usullariga o'tishi taraqqiyotni ta'minlash bilan uzviy bog'liqdir. Dialektologik tadqiqning imperik-tavsifiy bosqichidan navbatdagi pog'onasi qiyosiy-tarixiy, dialektologik talqin, arealogik-kartografik yoki lingvo-geografik tavsifiga o'tishdir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, arealingvistika sohasi til hodisalarining tarqalish hududlarini, bu hodisalarning o'zaro munosabati va adabiy tilga ta'sirini lingvistik geografiya metodlari asosida o'rganish bilan shug'ullanadi. Areal lingvistika muayyan hududlarda tarqalgan til xususiyatlarini umumlashtirib, areal umumiylik – tillar ittifoqi, shevalar izoglossalarini aniqlash va ularni xaritalashtirish ishlarini amalga oshiradi. "Areal" atamasi lotincha "area" so'zidan olingan bo'lib, "maydon, hudud" degan ma'nolarni bildiradi. Bu atama

tilshunoslikka ilk marta 1943 yilda italyan olimlari M.Bartoli va Dj.Vidossi tomonidan kiritilgan. Lekin aslida tilshunoslikka areal tahlil elementlarini G.Shuxardt (1868), I.Shmidt (1872), G.Venker (1881) kabi olimlar olib kirgan edilar. Keyinchalik areal lingvistik tadqiqotlarning doirasi kengaydi. Bu soha bo'yicha XX asrda juda katta ilmiy tadqiqot ishlari qilindi. Areal lingvistika sohasidagi tadqiqotlar hind-evropa tillari (E.A.Makayev), slavyan tillari (R.I.Avanesov, N.I.Tolstoy), german tillari (V.M.Jirmunskiy), roman tillari (M.A.Borodina) turkiy tillar (N.Z.Gadjiyeva), bolqon tillari (A.V.Desnitskaya) materiallari asosida davom ettirilib, salmoqli yutuqlar qo'lga kiritildi.

O'zbek xalq shevalarini ham lisoniy-jug'rofiy yo'nalishda tahlil qilish o'zbek shevashunosligi va o'zbek tili tarixi uchun qimmatli ilmiy-nazariy xulosalar berishiga shubha yo'q. Umuman, har qanday dialektologik ish ham ayni zamonda lisoniy-jug'rofiydir, zeroki, sheva hamisha hududiydir. Shu bois 1950-1980-yillardagi barcha dialektologik tavsiflar jug'rofiylikdan xoli emas. Lekin arealogiyaning maxsus tadqiq usuli bo'lgan lisoniy-jug'rofiy usul bilan o'zbek shevalari A.B.Jo'rayev, Q.Muhammadjonov, Y.Ibrohimovlar ishida tadqiq etilgan. SHunga qaramasdan o'zbek tili lahja va shevalarining barcha hududiy ko'rinishlari yetarli darajada tadqiq qilingan emas. Bu fikr o'zbek shevalariga ham tegishlidir. O'zbek tilining yetakchi (qorluq, qipchoq, o'g'uz) lahjalari mavjud bo'lgan mazkur hudud shevalari o'ziga xos lisoniy xususiyatlarga ega ekanligi bilan boshqa o'zbek shevalaridan farqlanadi. Ayni zamonda o'zbek tilshunosligida Navoiy viloyati shevalari fonetika va morfologiyasi alohida lisoniy-jug'rofiy usulda o'rganilmagan. Ushbu ish o'zbek tilining uchala (qorluq, qipchoq, o'g'uz) lahjasi mavjud bo'lgan hudud shevalarini ilk bor lingvo-geografik usulda o'rganishga bag'ishlangan. Bunday tadqiq natijalari o'zbek shevashunosligi, o'zbek tili tarixi uchunгина emas, balki turkiyshunoslik fani uchun ham qimmatli materiallar berishi shubhasiz. Chunki o'rganilayotgan shevalarda o'zbek tilining boshqa shevalarida qayd etilmagan, qadimgi yodgorliklar tilidagina saqlanib qolgan hodisalar mavjud. Bu Navoiy

viloyati o'zbek shevalarining tarkibiy qismida qadimiy turkiy til fonetik va morfologik xususiyatlarining saqlanganligidan dalolat beradi. Shu sababli ham mazkur hudud shevalarini barcha lisoniy yo'nalishlar bo'yicha tavsif va tadqiq qilish, ayniqsa, ularni qiyosiy-tarixiy va lisoniy-jug'rofiy usullarda tahlil qilish nihoyatda dolzarbdir. Chunki Navoiy viloyati o'zbek shevalari bo'yicha tuzilgan lisoniy xaritalari tadqiq etilayotgan shevalar lug'aviy birliklari, lisoniy hodisalarining funksional belgilari tarqalish areallarini, shevalararo hududiy farqlarni belgilashga, shuningdek, hudud tilining boshqa o'zbek shevalari bilan munosabatini aniqlashga, ichki tasnifini berishga xizmat qiladi. Xaritalashtirish orqali olingan lisoniy ma'lumotlar natijasida sheva vakillarining etnogenezi, urug' qabilalarning migratsiyasi, birlashish yoki ajralish jarayonlari haqida ma'lumotlar olishga imkon beradi. Shuni aytish joizki, bugungi kunda xalq tilidagi dialektal xususiyatlar shevalarning o'zaro aloqasi, adabiy til va turli madaniy-ma'rifiy muassasalarning ta'siri natijasida kamayib, shevalar o'rtasidagi o'ziga xos farqlar tekislanib, adabiy tilga singib borayotgan jarayonda, shevalarning boy lisoniy boyliklarini – adabiy tilda uchramaydigan so'zlarni to'plash, ularni saqlab qolish hamda ularning adabiy til mulkiga aylanishiga ko'maklashish zarurdir. Mamlakatimizda mustaqillik sharofati bilan o'z tilimizga bo'lgan yangicha munosabatlar yuzaga keldi. Istiqloq tufayli o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi ona tiliga bo'lgan hurmat va ehtirom ramzi bo'ldi. Bugungi kunda tilimiz o'zining cheksiz boyliklarga ega ekanligini namoyon etmoqda. Bejiz emaski, xalqimiz tilga, xususan, o'zining ona tiliga muhabbat bilan qaragan, uni e'zozlab-ardoqlagan. Chunki "...ona tili shu qadar sohir va ilohiy qudratki, uning siyratida yashiringan sinoatlarni batamom inkishof etmoq uchun inson aqlining sinchilik salohiyati ojizlik qiladi. (Mahmudov N. 1989,9) Shuni alohida aytish mumkinki, o'zbek adabiy tili boy manbalarni xalq tilidan oladi, u bilan boyib, uning zaminida taraqqiy etib boradi. Xalq shevalarini o'z vaqtidava atroflicha o'rganmas ekanmiz, ular davrlar o'tishi bilan adabiy til ta'siridan o'zgaradi, tekislasha boradi. Shuning uchun ham xalq shevalarini o'rganish bugungi kunning asosiy,

dolzarb masalalaridan biriga aylanmog'i kerak. Ayni paytda Navoiy viloyati o'zbek shevalarining o'rganilishi ham katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur hudud o'zbek, qozoq, tojik tillarining o'zaro muloqot hududi hisoblanadi. Ushbushevalarning o'ziga xos lisoniy xususiyatlarga ega ekanligi ham mana shundadir. Demak, o'zbek shevalaridagi biror so'zning shevalararo turli xil fonetik variantlarda uchrashi yoki boshqa nom bilan atalishi shevalarning tadrijiy taraqqiyot tarixi o'ziga xos sharoitda rivoji, sheva dialektlarining o'ta xilma-xilligi, ularga o'zga tillarning ta'siri kabi qator ichki taraqqiyot qonunlari va tashqi ta'sirlar bilan bog'liqdir.

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar

Tadqiqot ishi tajribasi ilk bor Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida yashovchilar nutqida qo'llaniladigan ijtimoiy-maishiy leksikani to'plash va areal lingvistik xaritaga tushurish masalasi ko'rildi.

Ma'lumki, o'zbek tili leksikasida ijtimoiy dialektlar turli tabaqada mansub bo'lgan shaxslar uchun xizmat qiladi. Ularning ijtimoiy kelib chiqishi, urf-odatlar, an'analari, kasb-korlari turli xil jihatlarni ochib berishda muhim manba hisoblanadi.

Ko'rinadiki, ijtimoiy dialektlar turli tabaqada mansub bo'lgan shaxslar va ularning ijtimoiy turmushdagi o'rnini ifodalashda o'ziga xos vositalar sifatida xizmat qiladi. Tilimizda shunday chegaralangan qatlam borki, biz uni noadabiy til vositalari nomi ostida o'rganamiz.

O'zbek tilshunosligida areal tadqiqotlarni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyati atroflicha yoritildi.

XULOSA

O'zbek shevalarini o'rganish, ilmiy tadqiqot qilish o'zbek dialektologiyasi, o'zbek tili tarixi, adabiy tili uchun katta ahamiyatga egadir. Bu borada ancha ishlar qilingan bo'lsa-da, hanuz barcha shevalar ayniqsa, ularning fonetik, morfologik, leksik xususiyatlari mukammal o'rganildi deb bo'lmaydi. Ana shu nuqtai nazardan olganda, Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida yashovchilar nutqida ijtimoiy-maishiy leksikasi birinchi marta tadqiqot obyekti bo'layotganligi o'zbek shevashunosligi uchun katta ahamiyatga egadir.

Sariosiyo tumani shevalarining ijtimoiy-maishiy leksikasini areal xaritaga tushirish masalasi bo'yicha olib borilgan kuzatishlar natijasida tadqiq qilingan ushbu dissertatsiya bo'yicha quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Boshqa o'zbek shevalari qatori, Sariosiyo shevalari ham qardosh bo'lmagan tillarning ta'siriga uchraganligi ma'lumdir. Shevalar fors-tojik, arab tili ta'siriga bevosita emas, bilvosita uchragan. Fors-tojikcha so'zlar qatlami ijtimoiy leksikasida salmoqli o'rin egallaydi. Shevalardagi fors-tojikcha so'zlarning ko'pchiligi ijtimoiy-maishiy hayot turmush tarzida qo'llaniladigan so'zlardan iboratdir. Bu so'zlar u yoki bu darajada fonetik o'zgarishlarga uchragan holda ishlatiladi.

2. Surxondaryo viloyatining Rossiya bilan munosabati uzoq davrlarga borib taqaladi. O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan istillo qilinishi natijasida bu munosabatlar yana kuchaygan. Ana shunday munosabatlar tufayli o'zbek tili va uning shevalariga, jumladan Surxondaryo shevalariga ham rus tili va u orqali ko'pgina yevropacha so'zlar kirib kelgan. Bunday so'zlar shevalarning fonetik qoniniyatlariga bo'ysungan holda ishlatiladi. Bu holat ayniqsa, og'zaki so'zlashuv nutqida yaqqol ko'zga tashlanadi.

3. Areal lingvistik tadqiqotlarning qiziqarli tomoni shundaki, unda bir tilda so'zlashuvchi xalqlar leksikasi turli hududlarda turlicha qo'llaniladi. Surxondaryo vohasi ham ana shunday juda keng leksik qatlamga ega bo'lgan hududlardan biri hisoblanadi. Surxondaryoliklar nutqida qo'llaniluvchi maishiy

leksikani ifodalovchi birliklar respublikamizning boshqa hududlarida yashovchilar leksikasidan ancha farqlanadi. Misol uchun: *uy-ro'zg'or buyumlari*: ko'rpacha-girdixona-yakandoz, namakdon, badya-sopol idish, bolish-bolisht-yostiqa-astiq, tuzdon-bidon-belbog'-chorsu, nimcha-gupicha, sixak-qirg'ich; *kiyim-kechak*: do'ppi-toqqi, sirg'a-zirak; *oziq-ovqat nomlari*: yaktak-jelak; *taqinchoq va zeb-ziynat nomlari*: chalop, beshbarmoq-to'ppa-ko'lova, qatlama-qalama, durda-durdak; *qishloq xo'jaligi buyumlari*: bichqi-arra, chelak-satilkabi dialektal leksemalar Surxondaryoning mahalla va qishloqlarida yashovchi o'zbeklarning nutqiga xos. Bu so'zlarning ba'zilarida (tuzdon-namakdon, bolish-bolisht, do'ppi-toqqi, nimcha-gupicha, beshbarmoq-ko'lova) tojik tilining ta'siri sezilsa, ba'zilari (cholop-chalop, qatlama-qalama, yostiqa-astiq) fonetik farqlar asosida shakllangan.

4. Ushbu tadqiqotda ilk bor hududiy nuqtayi nazardan, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanidagi Sebzor, Nelova, Subhidam, A.Navoiy, Niholzor, Shahriobod va asosan Bog'iston mahallasi Hisorak qishloqlarining areal lingvistik xaritasini tuzish masalasi ko'rib chiqildi.

5. O'zbek tilshunosligida areal tadqiqotlarni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari atroflicha yoritilib, Sariosiyo tumani misolida amalga oshirilib xaritalashtirish jarayonida Sariosiyo hududiga xos bo'lgan areal-individual dialektizmlar leksik, morfologik va fonetik jihatdan guruhlarga ajratilib, tasnif qilindi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, areal lingvistika tilimiz hamda shevalarimizning nafaqat hozirgi zamonaviy ko'rinishini, balki uning tarixiy ildizlari, tarqalish areallari, qardosh va qardosh bo'lmagan tillar bilan aloqalari kabi jihatlarni tekshiradi, shular borasida bahs yuritadi. Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, milliy tilimiz, ijtimoiy-maishiy leksikamiz, shevalarimizning tarixiy va zamonaviy ko'rinishlarini qiyoslash, ularni nozik farqlarigacha aniqlab, lingvistik atlaslarni yaratish hamon o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Bu esa tilshunoslikning mazkur sohasini yanada chuqurroq o'rganishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикасини 2017-2021 йилларда ривожланишнинг бешта устувор вазифалари бўйича “Харакатлар стратегияси” .-Т.: Ўзбекистон 2017 йил
2. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халкимиз билан бирга қурамиз. “Ўзбекистон”, Т.: 2017., 189-б
3. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон Давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2016й. 13-14-б
4. Каримов И.А. Буюк мақсад йўлидан оғишмайлик. - Т., 1993. -86.
5. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида. Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997.
6. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. // Мулоқат, 1998. - №5. - Б. 1-16.
7. Каримов И.А. Туркистонумумийуйимиз.-Т.: Ўзбекистон, 1995. - 29 б. П
8. Қувондиқ Оллоёров. Арал лингвистика фанини ўқитиш асослари. - Т., 2020.- 9 б
9. Курбаназарова Н.Ш. Арал лингвистиканинг бошқа фанлар билан алоқаси.– “Глобаллашув даврида туркий шевашуносликнинг долзарб муаммолари” мавзусидаги халқаро илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент: 2022. – Б: 148.
10. Зокиров А.М. Топонимия Джизахской области УзССР. Автореф.дисс.канд.наук. – М.,1991. – С. 5.
11. Марқаев К.Ш. Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи, Фил.фан.номз.дисс. – Тошкент: 2007. – Б. 28
12. Ахманова О.С. Лингвистик атамалар луғати. М., 1966; 2-нашр. М. 1969 й
13. Н.Муродова Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг лингвоарал тадқиқи.Т., Фан.2006.220 б.

14. Ш.Т.Махмараимова. Лингвокултурология. – Тошкент: Чўлпон, 2017. – Б:50.
15. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг қипчоқ шеvasи // Ўзбек диалектологияси масалалари. I. - Т., 1957.
16. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. - Т.: Ўзакадемнашр, 1968. - 347 б.
17. Абдуллаев Ф. Янгиқўргон районидаги қипчоқ шеvasи // Ўзбек диалектологиясидан материаллар. I том. - Т., 1957. - 327-330 б.
18. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари лексикаси // Ўзбек шевалари лексикаси. - Т.: Фан, 1966. - 20-22 б.
19. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. - Т., 1978. - 144 б.
20. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. - Т., 1973.
21. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. -Т., 1982. - 168 б.
22. Абдурахмонов Д. Бешкент район шевалари лексикасидан материаллар // Ўзбек диалектологиясидан материаллар. - Т.П - Т., 1961. - 221-228 б.
23. 243
24. Абдурахмонов Д. Тошкент область шеваларининг ўрганилиши // Ўзбек тили ва адабиёти. - 1980. - 4-сон. - Б. 49-54.
25. Абдурахмонов Д. Бухоро область ўғуз шевалари // Ўзбек тили ва адабиёти. - 1981. - 6-сон. - Б. 18-24.
26. Абдурахмонов Д. Ўзбек шевалари морфологиясининг ўрганилиши // Ўзбек халқ шевалари морфологияси. - Т., 1984. -Б. 248-271.
27. Абдурахмонов Д. Қарлукпар ва уларнинг тили // Ўзбек тили ва адабиёти. - 1987. - 6-сон. - Б. 30-56.
28. Азнабаев А.М., Псянчин В.Ш. Историческая грамматика башкирского язнка. - Уфа, 1983. - С. 496.
29. Айдаров Т. Қозок тили Томди шеvasининг лексик хусусиятлари хақида // Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика институтининг илмий асарлари. - Т., 1963. - Т. 42. -491-507 б.

30. Айдаров Т. Лингвистикальгк география. - Алматм, 1977.
31. Айдаров Т. Ареальная характеристика диалектной лексики казахских говоров Узбекистана: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. - Алма-Ата, 1980. - 48 с.
32. Алиев А. Ўзбек диалектологиясидан материаллар (Наманган шевалари). - Т., 1974. - 218 б.
33. Алиев А. Диалектал сўзлар тарихидан // Ўзбек тилшунослигининг актуал масалалари. - Т., 1987. - 14-19 б.
34. Алимуратов Х. Морфология узбекских кипчакских говоров низовья Сурхандарьи: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Т., 1982.
35. Алишер Навоий. Хамса. 1958. 244
36. Алишер Навоий. Муҳокамат ул луғатайн. Асарлар. 15 томлик. 14-том. - Т., 1967.
37. Азимов П. Ҳозирги замон туркман тили. Лексика. -Ашхабад, 1959.
38. Азербайчан дилинин диалектоложилуғати. - Бакм, 1964. - 480 б.
39. Амирова Т.А., Ольховиков Б.А., Рождественский Ю.В. Очерки истории лингвистики. - М., 1975. - 559 с.
40. Аразкутшев С. Гарагалпагыюган туркменлеринин геплешикларинде азик-нахар атларм // Диалект лексикасыг. -Ашгабат, 1980.
41. Аразкулиев С. Туркмен дилинин фарап диалектинде лексика-фонетик айратышлыгклар // Известия АН Туркменской Р.: серия общественных наук, 1987. -№ 2. - С. 57-61.
42. Ареальные исследования в языкознании и этнографии. -Л., 1977. - 263 с.
43. Ареальные исследования в языкознании и этнографии: тезисы. - Уфа, 1985. - 202 с.
44. Асамиддинова М. Кийим-кечакномлари. - Т.: Фан, 1981. - 115 б.
45. Ахмедов А. Джушский говор узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Ашхабад, 1962. - 23 с.
46. Ахмедов А. Жўш шевасининг баъзи бир морфологик ва лексик

- хусусиятлари. - Самарқанд, 1963.
47. Бабаниязов Х. Фонетико-морфологические особенности кыгачакских говоров Южного Хорезма: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Т., 1966. - 36 с.
 48. Баскаков Н.А. Ареални и маргинально зонаи в развитии тюркских языков // Народн и языки Сибири: ареально исследования. - М., 1978. - С. 37-46.
 49. Баскаков Н.А. Тюркские языки народов Средней Азии и Казахстана. - В кн.: Народн мира. Т. I. - М., 1962.
 50. Баскаков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. -М., 1969. - С. 118-119.
 51. Башкирская диалектология. - Уфа, 1963.
 52. Батманов И.А. К датировке тюрко-монгольских языковых параллелей // Происхождение аборигенов Сибири. -Томск, 1969. - С. 120-121.
 53. Базарова Д.Х. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка (на материале названий птиц). - Т., 1978.
 54. Бафоев Б. Кўхна сўзлар тарихи. - Т., 1996.
 55. Башкирско-русский словарь. - М., 1958.
 56. Бегматов Э., Бабаева А., Асомиддинова М. Адабий норма ва нутк маданияти. - Т.,: Фан, 1983.
 57. Бегматов Э. Ўзбек тили лексикасининг ижтимоий-тарихий асослари // Ўзбек тили лексикологияси. - Т.: Фан, 1981. - 41-52-бетлар.
 58. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. - Т., 1985.
 59. Бердиев Р. Туркмен дилининг диалектларидаге ва гапличикларидаге ишликлер. - Ашгабат, 1988. - 264 б.
 60. Бердиев А. Ўзбек тили аффиксал синонимиясининг баъзи хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. - 1974. - 6-сон.

61. Бердиёров Х., Расулов Р., Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологиясидан материаллар. - Самарканд. 1-Ш, 1976, 1978, 1983.
62. Благова Г.Ф. О несходствах типологически подобньтх ареалов (иш - как показатель множественности в среднеазиатских тюркских говорах) // Ареальню исследования в языкознании и этнографии. - Л., 1977. - С. 83-91.
63. Благова Г.Ф. Об ареальшлх системно-тематических исследованиях по грамматике тюркских языкков // Тюркология, 1978. - №1. - С. 8-28.
64. Благова Г.Ф. Тюркское склонение в ареально-историческом освегцени (юго-восточньш регион). - М.: Наука, 1982. - 304 с.
65. Бобожонов Й. Жанубий Хоразм этнографик лексикаси.: Филол. фанлари номзоди ... дис. - Т., 1997. - 187 б.
66. Бодуэн де Куртенэ И.А. Избранню трудм по обхцему языкознанию. В 2 т. - М., 1963. - Т.1. - 384 с.
67. Боровков А.К. Таджикско-узбекское двуязычие и вопрос! о взаимовлиянии таджикского и узбекского языкков // Ученю записки Института Востоковедения. - М., 1952. - XIV. -С. 165-200.
68. Боровков А.К. Узбекские говорьг Наманганской области // ТашГУ. - Т., 1963. Выш. 211. - С. 3-39.
69. Боровков А.К. Лексика среднеазиатского тefсира XII-XIII вв. - М., 1963. - 367 с.
70. Боровков А.К. Названия растений по Бухарскому списку «Мукаддимат-ал-адап // Тюркская лексикология и лексикография. - М., 1971.
71. Бородина М.А. Проблемн лингвистической географии. - М.-Л., 1966. - 220 с.
72. Бородина М.А. О типологии ареальнмх исследований // Проблемм картографирования в языкосознании и этнографии. - Л., 1974. - С. 44-54.
73. Бородина М.А. Понятие маргинального ареала в лингвистическом

- континууме // Ареальные исследования в языкознании и этнография. - Л., 1977. - С. 108-118.
74. Бородина М.А. Развитие ареальных исследований и основные типы ареалов // Взаимодействие лингвистических ареалов: Теория, методика и источники исследования. - Л., 1980. - С. 7-36.
75. Бородина М.А. Заключение // Взаимодействие лингвистических ареалов: Теория, методика и источники исследования. - Л., 1980. - С. 244-254.
76. Бородина М.А. Проблема лингвистического пространства в связи с изучением диалектов и их атласированием // Тюркология. - 1983. - №4. - С. 74-78.
77. Бородина М.А. О понятиях «диалектология», «лингвистическая география», «ареалогия» и «ареальные исследования» // Типы языковых общностей и методы их изучения: тезисы. - М., 1984. - С. 20-22.
78. Будагов А.А. Введение в науку о языке. - М., 1965. - С. 58.
79. Буранов М. Термины животноводства в узбекских говорах Каракалпакии.: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Т., 1972. - 32 с.
80. Валиев М. Найманский говор узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Самарканд, 1963. - 2 с.
81. Взаимодействие лингвистических ареалов. - Л.: Наука, Ленинградское отделение, 1980. - 276 с.

Internet saytlari

1. <http://www.TDPU.uz>
2. www.edu.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.google.uz
5. www.kitob.uz